

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI

Masharipova Mohira Odilbek qizi

5111100 – Musiqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha

(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)

bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz
musiqasini o'rni”**

Ilmiy rahbar:

Boltayev R.K.
katta o'qituvchi



Urganch, 2016y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika

(fakultet nomi)

Musiqa ta'limi

(kafedra nomi)

**“Umumta’lim maktabi o’rta sinflarida Yevropa mumtoz
musiqasini o’rni”**

(bitiruv malakaviy ishi mavzusining nomi)

Bajaruvchi:



Masharipova Mohira Odilbek qizi

Rahbar:



katta o'qituvchi Boltayev R.K.

Urganch - 2016-yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Pedagogika

(fakultet nomi)

Musiqqa ta'limi

(kafedra nomi)

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH BO'YICHA

TOPSHIRIQLAR REJASI:

1. Talaba Masharipova Mohira Odilbek qizi

Universitet rektorining "11" noyabr - sonli 204-T buyrug'i bilan bitiruv malakaviy ish bajarish uchun "Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni" mavzusi tasdiqlangan.

2. Kafedra majlisining qaroriga binoan katta o'qituvchi Boltayev R.K. bitiruv malakaviy ishini bajarishga rahbar qilib tayinlangan.

3. Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilmasi: Kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

4. Bitiruv malakaviy ish uchun ma'lumotlar I.A Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz, Abdullaev R..A Musiqqa ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami), Abdullayev R. Opera dramaturgiyasi, Akbarov I.A. Musiqqa lug'ati, Vaynkop Yu.Gusin I. Kratkiy biografičeskiy slovar kompozitorov, Vladimirov V.Lagutin A. Muzikalnaya literatura, Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levin B.Chet el musiqasi musiqasi, Levin B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnox stran, Levin B.V. Istoriya zarubejnoy muziki, Patina S.V. Iz istorii zarubejnoy muziki, Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka, Proxorova I. Muzikalnaya literatura zarubejnox stran mavzuga taaluqli adabiyot va manbalarni o'rganish "Yangi pedagogik texnologiyalar". N.X.Azizxodjaeva "Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat". Ziyonet.uz kabilardan olinadi.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA RAHBARINING MULOHAZASI

Talaba: Masharipova Mohira Odilbek qizi

Bitiruv malakaviy ish mavzusi: "Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni"

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 57 sahifadan (13261 s o'zdan) iborat

Tushuntirish qismi: 46 sahifadan iborat

Ilovalar soni: 6 sahifadan iborat

Mavzuning dolzarbligi: Jahon musiqa madaniyati musiqiy asarlar turlarini umumta'lim maktablarning musiqa madaniyati darslarida o'rganishdan asosiy maqsad o'quvchilarni Yevropa musiqasi tarixida XVIII asrda yangi davr boshlanligi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirilgan progressiv metodi bo'lmish simfoniya, opera va turli cholg'u janrlarini qaror topishini o'rganish va bu musiqiy madaniyat bilan tanishish. Bularning shakllanish jarayonlari turli Yevropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi, an'analarga boy va badiiy etuk Yevropa xalqlari musiqa ijodi namunalaridan bahramand etish, o'rgatish asosida o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantirish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo'lishi nazarda tutilgan.

Bitiruvchining umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi tavsifi: Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni umumkasbiy va maxsus tayyorgarligi yaxshi. Mavzu nazariya qismiga doir adabiyotlardan yaxshi xabardor ekanligi bitiruv malakaviy ishida o'z aksini topgan.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarining tarbiyasini har xil yo'nalishlarda takomillashtirish mumkin. Ijtimoiy-tarixiy va g'oyaviy jihatdan muhim o'zgarishlar bilam nishonlangan yangi zamon o'z davrning ilg'or goyalarinn olijanob asarlarda aks ettirib bera oladigan yangi sanadni, genial ustod-kompozitorlarning maydonga chiqishini talab etdi. XVIII asrning ikkinchi yarmi — musiqa madaniyati tarixidagi eng ajoyib davrlarning biri, Bax va Gendel va keyingi davrda musiqa olamida Gaydn, Motsart ham da Betxoven javlon urdi.

Ta'lim oluvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun berilgan asarlarni turli usullarda ijro etilishini nazorat qilib boriladi. Fanning pedagogik amaliyot jarayoni bilan uzluksiz holda o'qitilishi o'quvchilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga, bilim sohasidagi ko'nikma va malakalarni egallashlariga yordam beradi..

Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati va shaxsiy xususiyatlari: Bitiruvchi talabaning mustaqil ishni bajarish layoqati yaxshi, maxsus adabiyotlardan foydalanish qobiliyati yuqori. Masharipova Mohira Odilbek qizi tirishqoq, o'ziga talabchan va nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay oladi, bilim, malaka va ko'nikmalarini doimo oshirib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari: Bitiruv malakaviy ishida tadqiqot natijalari Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasi o'rnini o'rganish usullari ko'nikma va malakalari bilan qurollantirishda, shuningdek, Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasi o'rnini o'rganish usullari bilan tanishtirishda ko'pgina yozma manbalarda Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasi o'rnini o'rganish usullari bilan tanishtirishda ko'pgina yozma manbalarda Yevropa mumtoz musiqasi tushunchasini, ularning ba'zi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Bu manbalar bilan tanishish va o'rganish shuni ko'rsatadiki, Yevropa mumtoz musiqasi xalqimiz qalbida joy olgan bo'lib hozirgi davrda ham tinglovchilarni o'ziga rom etayotganligi shubxasizdir.

Bitiruv malakaviy ishga qo'yilgan talablarning bajarilishi darajasi: Ish bitiruv malakaviy ishga qo'yiladigan talablarga to'la javob berdi. Ishni himoyaga tavsiya etaman.

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

2016-yil " 1 "



Boltayev R.K.

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti 5111100 Musiqa ta'limi yo'nalishining bitiruvchisi Masharipova Mohira Odilbek qizining "Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni" mavzusida bajarilgan bitiruv malakaviy ishi DAK ning "8" 2016 yil "iyun" dagi majlisida himoya qilinadi.

Davlat attestatsiya komissiyasi bitiruv malakaviy ishga quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlarini belgilaydi.

No	Baholanadigan bo'limlar	Eng yuqori ko'rsatkich ball hisobida	Komissiya belgilagan foiz
1	BMI ning "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalarning yoritilishi	10	6
2	Ishning asosiy (tushuntirish) qismining Nizom talablariga mos holda bajarilishi	35	30
3	"Xulosa" qismida ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarning mavjudligi	10	6
4	Ishni bajarishda mavzuga oid manbaalarning tahlili. Chet el adabiyotlaridan va internet materiallaridan foydalanish	10	7
5	Ishdagi ilovalarning mavzu mazmuniga mosligi	10	7
6	Ishni bajarishda grammatika qoidalariga amal qilinganligi	5	4
7	Himoyaga ish mazmunini bayon qila bilganligi. Savollarga berilgan javoblar darajasi	10	7
8	BMI mavzus bo'yicha ilmiy - nazariy seminarlar va konferentsiyalarda ma'ruza (ahborot) bilan ishtiroki, maqola (tezis) nashr qilinganligi	10	7
Jami:			74

Davlat attestatsiya komissiyasi majlisining qarori:

1. Masharipova Mohira Odilbek qizining "Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni" mavzusida bajargan bitiruv malakaviy ish uchun 74 lik o'zlashtirish ko'rsatkichi belgilansin va "yaxshi" deb baholansin.

2.

DAK raisi:

A'zolari:

2016 yil "8" iyun

Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti
"Musika ta'limi kafedrası" musika ta'limi yo'nalishi bakalavr

"Tasdiqlayman"

Fakultet dekani f.m. f.n. X. Madatov.

"11" noyabr 2015 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISH BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba: Masharipova Mohira Odilbek qizi

1. Ishning mavzusi: "Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni"

"11" noyabr 2015-yil universitet rektorining 204-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Ishni topshirish muddati: "23" may 2016 y.

3. Mavzu bo'yicha dastlabki ma'lumotlar beruvchi adabiyotlar ro'yxati:

a) Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida T.1992

b) Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008

v) Abdullaev R.A. Musika ijodiyoti masalalari (maqolalar to'plami) T.2002

g) Abdullaev R. Opera dramaturgiyasi T. 2007

d) Akbarov I.A. Musika lug'ati T.1987

e) Vaynkop Yu. Gusin I. Kratkiy biograficheskiy slovar kompozitorov, Vladimirov V.Lagutin A. Muzikalnaya literatura, Galatskaya V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levin B. Chet el musiqasi musiqasi, Levin B.V. Muzikalnaya literatura zarubejnix stran, Levin B.V. Istoriya zarubejnnoy muziki, Patina S.V. Iz istorii zarubejnnoy muziki, Popova T.V. Zarubejgaya muzika XVIII veka, Proxorova I. Muzikalnaya litreatura zarubejnix stran mavzuga Ziyonet.uz kabilardan olinadi.

4. Ishning maqsadi: Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni

5. Chizma materiallar ro'yxati: Chizma materiallar yo'q.

6. Maslahatchilar: yo'q.

BITIRUV MALAKAVIY ISHNI BAJARISH JADVALI

No	Bajarilgan ishning mazmuni	Bajarish muddati
1	Mavzuni kafedrada tasdiqlatish	2015-yil. oktabr
2	Bitiruv - malakaviy ishini yozish nizomi bilan tanishish.	2015- yil. dekabr
3	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, tegishli nazariy adabiyotlarni o'rganish	2016-yil. yanvar
4	O'rganilgan adabiyotlarni tahlil qilish,	2016-yil. yanvar
5	Yig'ilgan materiallarni sistemalashtirish,	2016-yil. fevral
6	Tanlangan mavzuni tadqiq qilishning ilmiy tahlil metodlarini o'rganish	2016-yil. fevral
7	To'plangan materiallar asosida ishni kirish qismini yozish	2016-yil. mart
8	Ishni birinchi bobini yozish	2016-yil. mart
9	Ishning ikkinchi bobini yozish	2016-yil. aprel
10	Ishning Xulosa qismini yozish	2016-yil. aprel
11	Adabiyotlar ro'yhatini yozish	2016-yil. aprel
12	Ishni rahbarga tahririyat uchun taqdim qilish	2016-yil. may
13	Ishning dastlabki himoyasi	2016-yil. may

Bitiruv malakaviy ish rahbari:

katta o'qituvchi Boltayev R.K.

Bajaruvchi talaba:

Masharipova Mohira Odilbek qizi



2016 yil " 23 " may

Topshiriqlar rejasi va jadvali kafedra majlisida 2015 yil tasdiqlandi

(" 3 " 09.2- sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri:

katta o'qituvchi M. A. Nurmatova

Bo'limlar	Maslahatchi F.I.Sh.	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq qabul qildi
I-bob Yevropa mumtoz musiqasi	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	5.11.2015 	26.11.2015 
1.1 Yevropa mumtoz musiqa janrlari	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	10.12.2015 	24.12.2015 
1.2 Yevropa mumtoz musiqasida opera janrini o'rni va rivoji	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	14.01.2016 	4.02.2016 
1.3 Yevropa mumtoz musiqasida simfoniya janrining o'ziga xos xususiyatlari	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	28.02.2016 	28.03.2016 
II-bob Umumta'lim maktabi o'rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o'rni	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	7.04.2016 	28.04.2016 
2.1 Yevropa mumtoz musiqasining hozirgi zamon pedagogik amaliyotidagi ahamiyati	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	27.04.2016 	28.04.2016 
2.2 Umumta'lim maktabida Yevropa mumtoz musiqasi namoyandalarining o'rni	Boltayev Rustam Kurbanboyevich	1.05.2016 	19.05.2016 

Ishga taqriz yozuvchining F.I.Sh., ilmiy darajasi, unvoni: Urganch tuman II-son BMSM direktori Raximov R

Ilmiy rahbar:



Boltayev Rustam Kurbonboyevich

BMI bajaruvchi talaba:



Masharipova Mohira Odilbek qizi

Kafedra mudiri:



Nurmatova Mayya Abdullayevna

Urganch davlat universiteti

Pedagogika fakulteti

5111100 – Musiqa ta'limi yo'nalishi

Masharipova Moxira Adilbek qizining
Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi: “Umumta’lim maktabi o’rta sinflarida Yevropa mumtoz musiqasini o’rni”

Bitiruv malakaviy ish hajmi: 57 sahifa, 13261 s o’zdan iborat

Tushuntirish qismi: 46 sahifadan iborat

Ilovalar soni: 6

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi: Jahon musiqa madaniyati musiqiy asarlar turlarini umumta’lim maktablarning musiqa madaniyati darslarida o’rganishdan asosiy maqsad o’quvchilarni Yevropa musiqasi tarixida XVIII asrda yangi davr boshlanligi, bu davr voqelikni uning taraqqiyoti va ziddiyatlari bilan birgalikda aks ettirilgan progressiv metodi bo’lmish simfoniya, opera va turli cholg’u janrlarini qaror topishini o’rganish va bu musiqiy madaniyat bilan tanishish.

Bularning shakllanish jarayonlari turli Yevropa mamlakatlariga, turli milliy madaniyatlarga yoyildi, an’analarga boy va badiiy etuk Yevropa xalqlari musiqa ijodi namunalaridan bahramand etish, o’rgatish asosida o’tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg’ularni shakllantirish va buning asosida umumiy tushunchaga ega bo’lishi nazarda tutilgan. Bu esa tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko’rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishning “Kirish” qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati: Tadqiqotning “Kirish” qismida mavzuning dolzarbligi o’rganilishi, maqsad va vazifalarining, ob’ekti va predmeti, ilmiy yangiligi kabi masalalar o’z yechimini topgan. Ilovada berilgan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati qoniqarli. Ilovada Yevropa mumtoz musiqasi mansub suratlari ilova qilinadi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi: Malakaviy ishda talaba ilmiy manbalardan unumli foydalangan. Bitiruv malakaviy ishda foydalanilgan adabiyotlar 2000, 2001, 2002, 2003, 2012, 2013, 2014 yillardagi o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalarni hamda darsliklarni o'z ichiga oladi. **Masharipova Moxira Adilbekning** bitiruv malakaviy ishini yozishda elektron ta'lim resurslari: *www.pedagog.ru, www.google.ru, www.mail.ru* lardan samarali foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy - uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi: Bitiruv malakaviy ish ravon ilmiy uslubda yozilgan bo'lib, unda uslubiy, imloviy xatolar deyarli uchramaydi.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari: Bitiruv malakaviy ishda Respublikamizning umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilar Yevropa mumtoz musiqasida opera janrini o'rni va rivoji o'rgatish, Yevropa mumtoz musiqasining hozirgi zamon pedagogik amaliyotidagi ahamiyatiga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini musiqa o'quv-tarbiya jarayoniga qo'llay olishlariga erishish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, musiqa madaniyati darslarida amaliy yordam ko'rsatishi zarur. Tadqiqot ishi natijalaridan umumta'lim maktablari musiqa madaniyati darslarida unumli foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar: Ayrim o'rinlarda imlo xatolariga, bayonchilikka yo'l qo'yilgan. Ammo, bu ishning umumiy qimmatiga jiddiy putur yetkazmaydi.

Taqriz



Urganch tuman 11-son BSM direktori Raximov R

2016 yil " 1 "

Raximov R

Mundarija

Kirish.....	3-10
I-BOB O‘zbek xalq musiqiy cholg‘ulari	
1.1 O‘zbekistonda musiqiy cholg‘ularning tarixiy taraqqiyoti.....	11-15
1. 2 O‘zbek musiqiy cholg‘ulari va ularning turlari.....	15-27
II bob. BMSM xalq cholg‘ularida o‘rgatish uslubiyoti	
2.1 BMSM xalq cholg‘ularida o‘qitish uslubiyoti asoslari	28-33
2.2 BMSM da xalq cholg‘ularida ijro mahorati.....	33-38
2.3 O‘zbek xalq cholg‘ularida shtrixlar va ularni ijro etish usullari.....	39-46
Xulosa	47-48
Foydalanilgan adabiyotlar.....	49-50

KIRISH

O'zbek xalqining musiqiy merosi mazmunan boy va shaklan beqiyosligi tufayli qadim tarixga ega bo'libgina qolmay, o'ziga monand ilm-fani bilan uzviy birlikda taraqqiyot yo'lini kechgan.

Markaziy Osiyoda musiqaning tarixiy, nazariy va ijodiy negizlari uzoq o'tmishdanoq puxta tahlillangan, buni bizga qadar etib kelgan musiqaga oid o'nlab risolalar isbotlaydi. Inson dunyoqarashining barcha yo'nalishlariga birdek ta'sir etadigan o'zgarishlar, ilm, madaniyat, san'atda deyarli birdek iz qoldirishi bugungi kunda hammamizga ayondir. Fikrimizning yorqin dalili sifatida, bir qator tarixiy manbalarni keltirishimiz mumkin. (IX-XIII asrlarda Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Faxriddin ar-Razi, Sayfiddin Urmavi.) Nomlari butun dunyoga ma'lum va mashxur bo'lgan bu allomalarning ijodida matematika, tibbiyot, astronomiya, musiqa kabi fanlarga oid kuzatuvlarga teng ravishda o'rin ajratilgan. Bu davrning musiqaga oid ilmi aniqlik, fikrlarning dalilligi bugungi kunga qadar biz uchun qiziqarlidir.

Musiqa ilmining yana bir ko'tarinki davri XIV-XVIII asrlarga to'g'ri keladi. (Qutbiddin Sheroziy, Abdulqodir Marog'i, Abduraxmon Jomiy, Najmiddin Kavkabiy, Darvish Ali Changiy.) Bu davr asosan Sharq mumtoz she'riyatining yuksalgan davri bo'lib, musiqa ilmida ham go'zallik, nazokat, badiiy did tarbiyasiga urg'u beriladi. Falsafiy yondashuv ildiz otadi. Musiqa ilmining inqirozi taxminan XIX asrdan boshlanadi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, bir vaqtlar dovrug'i Mag'ribu Mashriqqa ketgan Buxoro, Xiva, Samarqand madrasalari inqirozga yuz tutdi. Bu madrasalarda beriladigan ta'lim asosan diniy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, dunyoviy bilimlar bir chetda qolib ketaverdi. Olimlarning kuzatuviga ko'ra mashhur Ko'kaldosh, Mir-arab madrasalarida beriladigan dunyoviy bilimlarning darajasi Ovrova maktablarining boshlang'ich sinflariga to'g'ri keladi. Diniy yondashuvlarning kuchayib ketishi, hayotiy ijtimoiy masalalarni surib tashlash, musiqaga oid masalalarda ham o'z aksini topdi. Shu davrga oid qo'lyozmalarning

aksariyat qismi forsiy va arabiy tillarda bo'lib, ularning asosiy mazmuni diniy aqidaparastlikdan iborat bo'ldi. XV-XVI asrlarda xukm surgan aniqlik va ilmiylikdan XIX asrning oxiriga kelib nom nishon qolmaydi.

1917 yildan keyin o'zbek xalqi va O'rta Osiyoda yashovchi boshqa xalqlarning ovro'pacha ta'lim olishi va g'arb madaniyatini o'rganishi uchun ancha imkoniyatlar yaratildi. Sho'ro hokimiyatining dastlabki yillari iqtisodiy qiyinchilik, grajdanlar urushi bo'lib turgan bir paytda hukumat o'z oldiga madaniy islohotni amalga oshirish vazifasini qo'ydi. Turkiston o'lkasida oliy va o'rta maxsus maktablar tashkil qilina boshlandi. Bu davrda O'zbekistonda ko'pgina mutaxassisliklar qatori san'at va madaniyat sohasidagi mutaxassis kadrlar ham etishmas edi.

1918 yilning aprelida Toshkent askar va ishchi deputatlarining qarori bilan Turkiston xalq universiteti tashkil qilinadi va u bilan birga Toshkentda xalq konservatoriyasi, keyinchalik respublikaning katta shaharlari Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Namangan va boshqa shaharlarda ham xalq musiqiy maktablari tashkil qilinadi.¹

Dastlab xalq konservatoriyasi nomi bilan boshlang'ich musiqa maktablari ish yurita boshladi. Ko'pchilik muallimlar xalq maorifiga, davlat xizmatiga o'ta boshladilar. Buning natijasida Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo'qon, Buxoro va Xivada xalq musiqa maktablari ochildi.² Bunday musiqa maskanlarining tashkil qilinishida Moskva, Petrburg, Kiev, Qozon va boshqa shaharlardan kelgan sozanda va ziyolilarning xizmatlari katta bo'ldi.

XX asrning 1930 yillarga kelib o'qitish ishlariga bir qancha orkestr sozandalari, yakkaxon musiqachilar kelib qo'shildi. Bular: M.D.Yakovets (zarbli cholg'ular), A.D.Nikitin (fagot, truba, dirijer), V.Kozolupov (klarnet), A.E.Morozov (trombon, tuba), G.Selyutin va M.N.Nikolaenko (valtorna) va boshqalar. 1936 yili O'zbek davlat musiqa texnikumi O'zbek davlat musiqa bilim

¹ Dulgarova I. «Turkestanskaya narodnaya konservatoriya». T., 1971.

² Vizgo T. «Pervoe muzikalnoe uchebnoe zavedenie». T. I. T., 1972.

yurtiga aylantirildi va 1939 yildan O‘zbekiston Oliy kengashi Prezidiumi qarori va H.H.Niyoziy tavalludining 50 yilligi munosabati bilan Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi berildi. Bu davrda musiqa bilim yurtida damli cholg‘ular bo‘yicha fleytachilar R.Yusupov, G.Azimov, trubachilar L.Ahrorov, U.Abdullaev, V.Klyuev, fagotchi N.Umarov, trombonchi F.Bortnik va boshqalar yoshlarga musiqa sirlarini o‘rgatishgan.

XXI asrda musiqa ilmi shiddat bilan rivojlangan bo‘lib, bugungi kunda bir vaqtning o‘zida bir necha mustaqil ilmiy tarmoqlar mavjudligini ta’kidlashimiz mumkin. Musiqa tarixi, musiqa nazariyasi, musiqa falsafasi, musiqa tanqidchiligi, etnomusiqashunoslik, bizning Mamlakatimizda esa, yana musiqiy sharqshunoslik va dastlabki yillarda yuzaga kelgan musiqiy manbashunoslik, shular jumlasidandir. Bu ilmiy tarmoqlarning deyarli barchasi bugungi kunda O‘zbekiston davlat konservatoriyasida amaliy ko‘rinishga ega bo‘lib, fakultetlar, kafedralar, ilmiy markazlar faoliyatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi dasturlar asosida yaratilayotgan o‘quv adabiyotlar, amaliyotga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar buning yorqin namunasidir. Musiqa nomoddiy san’at turi, asosiy maqsadi tomoshabinga yo‘naltirilgan ekan, ommaviy musiqa masalalari ham bugunki kunda mutaxassislar diqqat markazidan chetda qolmagan.

Yoshlarimizni tarbiyalashga qaratilgan davlat dasturiga amal qilgan holda, musiqa sohasida yuqori malakali va intellektual mutaxassislarni tayyorlash orqali jahonning nufuzli tanlov, kontsert va festivallarida qatnashib 200dan ortiq yuqori sovrinlarni qo‘lga kiritganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, milliy musiqamizni ilmiy o‘rganib, yoshlarga ta’lim berishda, shu bilan birga jahon musiqa madaniyatidan baxramand qilishda bo‘lg‘usi mutaxassis sifatida ilmiy va amaliy faoliyatni uyg‘unlikda olib borishga harakat qilmoqimiz zarurdir.

Mavzuning dolzarbligi: Milliy musiqa madaniyatimizning xar qachongidan chuqurroq va atroflicha o‘rganish. Uni xalq ichida keng targ‘ib qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Binobarin, O‘zbek musiqa madaniyati va uning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan cholg‘u ijrochiligi san’ati qadim–qadimdan

boy an'analarga egadir.

Cholg'u ijrochiligi an'analari azal–azaldan xalq musiqa san'atida muxim ahamiyat kasb etib kelgan. Bunda biz cholg'u sozlarimizning rang–barangligi, mukammalligi va jozibadorligini ko'ramiz. Milliy cholg'ularimiz orasida keng ommalashgan va o'zining sexrli sadolari, nola–qochirimlari, rang-barang milliy ijro bezaklari va sexrli oxanglari bilan insonlarni o'ziga maftun etgan sozlardan biri-qashqar rubobdir.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rubob cholg'usi Markaziy Osiyo xalqlari o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobning asosan qachon va qaerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay tarixiy manbaalarda «rabob», «rebab», «rubob» cholg'usi haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Bunday ma'lumotlarni Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog'iy, Darvish Ali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab allomalarning asarlarida kuzatish mumkin. XVII asrda Buxoroda yashagan Darvish Ali Changiyning «Musiqa haqida risola»sida XVI-XVII asrlardagi cholg'ular va sozandalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. O'sha davrlarda tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak cholg'ulari keng tarqalgan cholg'ulardan hisoblangan.

Qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan prima, alt va metstso-soprano turlari yaratildi. Natijada qashqar rubobida o'zbek xalq musiqasi bilan birga ko'plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda bitiruv malakaviy ish mavzusini: **“BMSM xalq cholg'ularida o'rgatish uslubiyoti”** deb nomladik.

Tadqiqot ob'ekti: Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari bilan o'quvchilarni tanishtirish, Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari xaqida tushincha berish.

Tadqiqot predmeti Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq

cholgʻu asboblari oʻrgatish uslublari.

Tadqiqot maqsadi: Bolalar musiqa va sanʼat maktablarida oʻzbek xalq cholgʻu asboblari oʻrgatish uslublari bilan tanishish va buning asosida umumiy tushunchaga ega boʻlish.

Tadqiqot vazifasi:

1. Oʻzbek xalq musiqiy cholgʻulari
2. Oʻzbekistonda musiqiy cholgʻularning tarixiy taraqqiyoti
3. Oʻzbek musiqiy cholgʻulari va ularning turlari
4. BMSM xalq cholgʻularida oʻrgatish uslubiyoti
5. BMSM xalq cholgʻularida oʻqitish uslubiyoti asoslari
6. BMSM da xalq cholgʻularida ijro mahorati
7. Oʻzbek xalq cholgʻularida shtrixlar va ijro etish usullari

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Bolalar musiqa va sanʼat maktablarida oʻzbek xalq cholgʻu asboblari oʻrgatish uslublari bilan tanishtirishda koʻpgina manbalarda Taxalov S.M. «Afgʻon rubobini chalishga oʻrgatish metodikasi asoslari», Vasilev F.N. «Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi», Usmonov Q. «Boshlangʻich rubob darsligi», Qosimov R. «Rubob navolari» ularning baʼzi amaliy tomonlarini anglashga yordam beradigan qimmatli maʼlumotlar uchraydi. Bu manbalar bilan tanishish va oʻrganish shuni koʻrsatadiki, oʻzbek xalq cholgʻularini oʻrganish yoʻlga qoʻyilgan. Oʻzbek xalq cholgʻu asboblari ijrochiligiga oid koʻpgina amaliy va nazariy fanlar musiqiy taʼlim oʻquv rejalariga kiritilgan.

Tadqiqotda qoʻllanilgan uslublarning qisqacha tavsifi:

1. Analiz va sintez
2. Maxsus adabiyotlar va manbalarni oʻrganish
(Akbarov I.A. «Muzika lugʻati», Vasilev F.N. «Qashqar

rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi, Irgashev G'. «Gullar raqsi»,Nazarov A.K. «Bas dutor darsligi», Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi», Taxalov S.M.«Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari», Sharipov N. «Rubob primada ijro etishni o'rgatish metodikasi», Qosimov R. «Rubob navolari», Qosimov R. «An'anaviy rubob ijrochiligi», Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar, mavzuga taaluqli adabiyot va manbalarni o'rganish)

3. Ma'lumotlarni umumlashtirish, taqqoslash

4. Pedagogik kuzatish

Analiz va sintez uslubidan ilmiy materialni tanlash, o'rganish, tadqiqot mavzusiga doir fikr va g'oyalarni ajratish, tadqiqot xulosalarini chiqarishda foydalaniladi.

Tadqiqot mavzusiga doir asosiy ilmiy materiallar, g'oya va fikrlar mazmuni musiqiy pedagogik mahorat asoslari, pedagogik texnologiya, zamonaviy kompyuter texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish fanlarga oid maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Umumlashtirish va taqqoslash uslubi yordamida har bir o'rganilayotgan muammo yuzasidan xulosalar chiqariladi.

Pedagogik kuzatish uslubi vositasida umumta'lim maktabida pedagogik texnologiyasidan foydalanishning ilmiy - metodik asoslari o'rganiladi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati:

- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari, musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning ilmiy asoslanishida;
- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublarini tadbqiq etishda;
- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari bilan tanishtirishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilganligida;
- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish

uslublari bilan tanishtirishning innavatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqilganligida;

- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari bilan tanishtirishda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholash mezonini ishlab chiqishda;

- Texnikaviy rivoj bosimida jadallab borayotgan va o'z ta'sirini o'tkazayotgan musiqiy taraqqiyot oqimining yoshlarga ta'siri o'z kuchini ko'rsatmoqda, ta'limda vaqt tejash hisobiga an'anaviy usulga nisbatan ko'proq material o'rgatilishi va mazmunining chuqurlashtirilishida;

- Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari bilan tanishtirishning metodikasini ishlab chiqilishi va metodik tavsiyalar berilishida.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari Qosimov R. "An'anaviy tanbur ijrochiligi", Nazarov O.F. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti, Vasilev F.N. «Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi, Irgashev G'. «Gullar raqsi», Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi», Taxalov S.M.«Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari», Sharipov N. «Rubob primada ijro etishni o'rgatish metodikasi» manbalarida va musiqashunos olimlar tomonidan atroflicha o'rganilib kelinganligi asoslab berildi;

2. Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublariga oid fikrlar Akbarov I.A. «Muzika lug'ati», Irgashev G'. «Gullar raqsi», Nazarov A.K. «Bas dutor darsligi», Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi», Sharipov N. «Rubob primada ijro etishni o'rgatish metodikasi», Nazarov O.F. Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti kabi manbalar musiqa ilmining poydevorini tashkil qilib, musiqaning yuzaga kelishi, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni, tarixiy shakllari, ijrochilik va ta'lim masalalari hamda ular negizida o'zbek xalq cholg'u asboblarini o'rgatish uslublari, tarkib topish qonun-

qoidalari batafsil yoritilib, pedagogik texnologiyasidan foydalanishning metodik ta'minoti yaratildi;

3. Bolalar musiqa va san'at maktablarida o'zbek xalq cholg'u asboblari o'rgatish uslublari metodikasi ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibining qisqacha tavsifi:

Kirish, 2 bob, xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilinadi. Ish 48 bet (asosiy matn – 46 bet, 29 ta manba va ilova)dan tashkil topgan.

Kirish qismida tadqiqot qilinayotgan mavzuning dolzarbligini asoslab berilgan, izlanish maqsadi, ob'ekti, predmeti, vazifa va metodlari ko'rsatilgan, ilmiy farazi qo'yilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy qimmati ichib berilgan.

Birinchi bob O'zbek milliy cholg'ulari mavzuida muammoning nazariy, tarixiy asoslari tahlili natijalari yoritilgan, O'zbekistonda musiqiy cholg'ularning tarixiy taraqqiyoti, O'zbek musiqiy cholg'ulari va ularning turlari asoslab berilgan.

Ikkinchi bob Bolalar musiqa va san'at maktablarida BMSM xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti asoslari, BMSM da xalq cholg'ularini chalishga o'rgatish, O'zbek xalq cholg'ularida shtrixlar va ularni ijro etish usullari metodlari yoritilgan.

Xulosada olib borilgan tadqiqotning asosiy yakuniy fikr va umumlashmalari bayon qilingan.

I-BOB O‘ZBEK XALQ MUSIQIY CHOLG‘ULARI

1.1 O‘zbekistonda musiqiy cholg‘ularning tarixiy taraqqiyoti

Ma’lumki, musiqiy cholg‘ular xalqlarning moddiy hamda ma’naviy boyligidir. Chunonchi, har bir xalq o‘z milliy merosi, davrlar osha yuzaga kelgan an’analarini milliy ohanglar orqali tarannum etuvchi va xalqning miliy ma’naviyatiga xos yaratilgan amaliy san’at namunalari orqali ularga mos keluvchi cholg‘u asboblari egadirlar. O‘zbek musiqiy cholg‘ular olami bu xususda ma’nan va moddiy nuqtai nazardan boy hamda rang-barang ekanligini e’tirof etib o‘tish lozimdir. Qolaversa, qaysiki xalqning ma’naviyati yuksak bo‘lsa, uning Tarixi va unga mos merosi ham ulkandir.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, o‘ziga xos shakllangan va musiqa barcha tarmoqlariga mos cholg‘u asboblari shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. O‘tmish allomalari Al-Forobiy (IX asr) o‘zining «Katta musiqa kitobi»da, Safmddin Urmaviy (XII asr) musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iy (XIV asr) «Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy» risolasida, Ahmadiy (XIV asr) «Sozlar munozarasi» asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) «Risola dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy» risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr) «Musiqiy risola»sida, Amuliy (XVI asr) «musiqa risola»sida, Darvesh Ali Changiy (XVII asr) «Musiqiy risola»larida musiqiy cholg‘ularni o‘rganib tadqiq etish masalalarining turh tomonlariga to‘xtalib, o‘z davrlarining musiqiy cholg‘ulari tasnifotini bayon etganlar.

O‘tmishning zabardast shoirlari o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ular nomlarini zikr etishda sozlarga takror va takror murojaat etganlar. Ayniqsa, buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy musiqa ilmining eng nafosath va mumtoz kerakli tarmoqlariga urg‘u berib o‘tganliklarini asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgom, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg‘ularni o‘rganish xususida samarali ish olib borganlar.

Tarihiy qo‘lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O‘rta Osiyo xalqlari amaliyotida vujudga kelgan barcha cholg‘u asboblarning nomlari o‘z ifodasini

topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbatlari, tayyorlash mezonlari, cholg'ular uchun ishlatiladigan daraxtlar va h.k. haqida) ma'lumotlar keltirilgan. Ularda, torli cholg'ulardan: borbad, ud, rud, qo'buz, g'ijjak, navha, nuzxa, qonun, chang, rubob, tanbur, dutor; damli sozlardan: ruhafzo, shammoma, org'anun, sibizg'i, nayi anbon, chag'ona, bulamon, surnay, nay, qo'shnay, Karnay; urma cholg'ulardan: daf, doyra, nog'ora, safoil kabilar haqida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Al-Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Amuliy, Darvesh Ali Changiy, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayevlar o'z risolalarida cholg'u sozlariga katta e'tibor bilan yondoshib, ulami amaliyotdagi tutgan o'mi, ayrim falsafiy xususiyatlari hamda malum darajada tasnifoti bilan yoritganlar.

Odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turh yo'nahshlarida qo'llanilib kelingan. Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud, ayni paytda ham iste'molda bo'lib keladi. O'zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo'llanib kelinayotgan cholg'ulardan Chang, qo'biz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyliги bilan ajralib turadi.

Davrlar o'tishi, jamiyat taraqqiyoti mezoniga cholg'u sozlar ham hamnafas tarzda rivojlanib, zamonaga mos takomiliashib, mukammallashib borgan. Tarixiy manba'larda, Qulmuhammad Udiyning ud cholg'usiga to'rtinchi sim taqqanligi yoki g'ijjak cholg'usining awal ikki torh, keyin uchinchi va to'rtinchi torlari taqilganligi kabi ma'lumotlar aynan cholg'ular takomiliashishi bilan bog'liqdir. **Takomillashish jarayonida cholg'ularning shakl va tarannum (ovoz) mezonlarini boyitish katta ahamiyat kasb etgan.** Bu ikki mezon cholg'ularning ma'nan va moddiy qiymatini ham belgilashga asos bo'lib xizmat qilgan. Zero, chiroyli cholg'u go'zal ovozga ega ekan, u xalq ma'naviy boyligi hamda mulki ekanligini e'tirof etish lozimdir.

XIX asr oxiri va XX asrning o'zida o'zbekona chang, qashqar ruboblari shakllanib iste'molga kirdi. Ud va qonun sozlari qayta tiklanib, ijrochilik amaliyotini

sezilarli darajada boyidi. Afgʻon rubobi hamda kurd sozlari ham oʻziga xos jozibasi bilan amaliy jarayondan munosib oʻrin oldi. Zamonaviy kompozitorlik ijodiyoti bilan bogʻliq holda bir qator Chang, rubob, dutor, gʻijjak kabi xalq cholgʻularining oliaviy namunalari yaratildi. Pirovardida, zamonaviy jamyonga kelib musiqiy cholgʻularning turli yoʻnalishlarga mos, xilma-xil tarkiblari yuzaga keldi. Amaliyotda anʻanaviy, qayta ishlangan, takomiliashgan, qayta tiklangan, yangi zamonaviy (hamda elektron) xillari keng qoʻllanilmoqda.

Qayd etish joizki, cholgʻular, cholgʻu musiqasi hamda ijrochiligi azal-azaldan bir-birini toʻldirib, rivojlanishiga va takomiliashishiga zamin yaralib kelgan. Ijrochilik mezonining rivoji cholgʻular koʻlamini kengaytirish, imkoniyatlarini oshirish uchun xizmat qilgan. Oʻzbek anʻanaviy cholgʻularining Tarixiy shakllanishi ham bir qator xalq milliy anʻanalari negizida qaror topgan. Kasbiy musiqaning ijodiyoti va uning rivoji aynan cholgʻular bilan chambarchas bogʻliqligini qayd etib oʻtish lozimdir. Chunonchi, mumtoz ijodiyot cholgʻularning mukammaliik xususiyatlarini namoyish etibgina qolmay, ulaming rivojiga ham oʻz taʼsirini koʻrsatib kelgan. Shu bois, cholgʻular va cholgʻu musiqasi anʻanalari oʻzining shakllanish davri, yaʼni qadim zamonlardan xalq musiqa madaniyatining asosiy omiliaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.

Cholgʻushunoslik ilmi fanda «organologiya» deb yuritiladi va cholgʻu sozlaming shakllanishi, amaliyotda qoʻlianihshi hamda rivojlanish mezonlarini ilmiy asoslab beradi. Ushbu fanning rivojida bir qator [Sharq va Gʻarb olimlari qatorida oʻzbek musiqashunos olimlari ham munosib tadqiqotlar olib borganlar. Qadimiy cholgʻular koʻproq Tarixiy obidalar orqali kashf etilib, keyinchalik Tarix, adabiyot va musiqiy risolalarda bayon etilgan.](#)

Cholgʻularning ilk tasvirlari qadimgi odamlaming istiqomat joylari - gʻorlarda, qoya toshlarda oʻyib chizilgan, imoratlaming peshtoqlari, saroylaming devoriy suratlari, sopol idishlarga chizilgan suratlarda va terrakota haykalchalarida aksini topgan.

Oʻrta Osiyo va Oʻzbekiston hududlarida Afrosiyob, Dalvarzin tepa (Surxondaryo), Varaxsha (Buxoro), Ayritom, Zartepa, Qoʻy qirilgan va Qoʻzi

qirilgan tepalar (Koʻhna Urganch), Panjikent³ kabi qadimiy joylar qazilmalaridan topilgan chizma surat va haykalchalar shular jumlasidandir. Qadimiy suratlarda arfa, ud, naysimon hamda urma cholgʻular aks ettirilgan. Musiqiy cholgʻu ijrochiligiga boʻlgan ehtiyojni aynan ushbu suratlardan koʻrish ham mumkin. Chunki suratlarda nafaqat yakka ijrochilar yoki cholgʻu asbobining oʻzi aks ettirilgan, balki, Ayritom qazilmalaridan topilgan Tarixiy obidalarda qadimgi Sugʻd madaniyatiga xos ansambl, yaʼni bir qator musiqachilarning cholgʻularni dasta boʻlib ijro etayotganlarining aksi tushirilgan

Musiqiy cholgʻularning taʼrifi yaʼni shakl-tuzilishlari tarkibiy jihatlari, nomlari, ijrochilari bilan bogʻliq maʼlumotlar, asosan Oʻrta asrlardan boshlab badiiy adabiyot asarlari hamda musiqiy risolalarida yoritila boshlanadi. Demak, Oʻrta asrlarga kelib qadimdan shakllanib takomillashib kelgan xalq musiqiy cholgʻulari ijrochilik amaliyotida oʻz oʻmini topgan. Shu bilan birga nafaqat xalq, balki olimlarning eʼtiborini ham qozongan. Bu jarayonni O.Matyoqubov «Maqomot» kitobida quyidagicha bayon etadi: «Cholgʻularga bunday atroflicha qiziqishlar zahirida musiqiy asboblarning ijrochilik faoliyatini obʼektiv aks ettirishdir, degan ilmiy tushuncha yotadi. Forobiy taʼbiri bilan aytganda, cholgʻu asboblarning shakllanishi, avvalo, amaliyotda yuzaga keladi. Ularning tembr-akustik xususiyatlari parda va tovushqatorlari bevosita ijro jarayonida shakllanadi va takomillashadi. Shundan soʻnggina cholgʻular olimlar kuzatuv va umumlashmalariga zamin boʻlishi mumkin.⁴

Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdulloh al-Xorazmiy, Zaynullobiddin Husayniy, Safiuddin Urmaviy, Abdulqodir Marogʻiylar⁵ oʻz risolalarida cholgʻular va ularning bir qator sifat va xususiyatlari xususida mufassal soʻz yuritganlar. Oʻrta asr risolalarida cholgʻular takomillashishi hamda rivoji sohda qilingan oʻzgarishlar, ijrochilik amaliyotida yaratilgan yangi soʻzlar va isteʼmoldan chiqqan cholgʻular tasnifotini koʻrish mumkin.

Musiqi sanʼatining boy maʼnaviy jihatlari badiiy adabiyot namoyandalarini

³ Vizgo T.S. «Muzikalnie instrumenti Sredney Azii» M., 1980

⁴ Matyoqubov O. «Maqomot» T., «Musiqi» 2004, 272-bet

⁵ Rajabov I «Maqomlar masalasiga doir», T., 1963;

ham befarq qoldirmagan. Musiqa sehri, cholg'ulardan taralgan sirli ohanglar Sharq badiiy proza va mumtoz she'riyati, ya'ni badiiy adabiyotida o'ziga xos ifodasini topadi. Bular benazir cholg'u sozlar nomlanishi, o'z davrining mashhur ijodiyot namunalari, bastakor, sozanda va xonandalar ijodi, xalq musiqa ijodiyoti va an'analarida ko'rinadi.

1.2 O'zbek musiqiy cholg'ulari va ularning turlari

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning bari uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. *Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.*

An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, Chang, qonun, doyra, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi.

Qayta ishlangan cholg'u asboblari -rubob, g'ijjak, dutor va Chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, ulardan turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlari, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Ko'p asrlik ijrochilik amaliyoti esa (xalq va an'anaviy) cholg'ularni guruh bo'lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg'ular sozandalar tomonidan bir-birlariga mos o'z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhli tarkiblar tuzilib amaliyotda qo'llanilib kelingan.

Karnay, surnay, nog'ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi

qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan. Cholg'u musiqasi ijrochiligi va maqom ijrochilik amaliyotida esa kichik-kichik guruhlar bo'lib ijro etish ham an'anaga aylangan. Jumladan: har bir cholg'u doyra jo'rliги bilan ijro etish; tanbur dutor bilan; tanbur, dutor doyra jo'rliги bilan; tanbur, dutor, g'ijjak doyra jo'rligida ud, qonun doyra bilan birga va h.k.

Hozirgi davrga kelib o'zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo'nalishi, xalq mumtoz musiqa yo'nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo'nalishi. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatiga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan: rubob, nay, g'ijjak, chang va doyra cholg'u asboblari. Qayd etish joizki, xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta olish xususiyati taqozo etiladi.

Xalq mumtoz musiqa yo'nalishiga xos bo'lgan cholg'ular guruhleri ko'proq kamer xususiyat kasb etishlarini nazarda tutib, joy, sharoit va muhitga asoslanadi. To'liq ansambl tarkibi esa barcha cholg'ularni qamrab oladi, hattoki, g'ijjak, dutor, tanbur cholg'ularidan qo'sh holatda foydalanish katta imkoniyatlarni hosil qiladi. Bunda ansambl zabardast ovoz imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi. Musiqa ijodiyotidan o'rin olgan janrlar negizida cholg'ularning tarkibiy guruhleri tashkil etilib, ijro etiladi. Unga ko'ra cholg'u duetidan toki xalq cholg'u asboblari orkestrigacha bo'lgan cholg'u asboblari tarkibi tuzilgan va ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi. Qayd etish lozimki, orkestrning to'laqonli ovoz imkoniyatlariga ega bo'lish yo'lida Evropa cholg'ularidan ham keng foydalaniladi.

Ijrochilik amaliyotida shakllangan barcha cholg'u asboblari o'z xususiyatlari

doirasida uch turga bo'linadi. Torli, puflama va zarbli cholg'ular.

Qashqar rubobi cholg'usi Markaziy Osiyo xalqlari o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar orasida qadimiy va ommalashgan cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobning asosan qachon va qaerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay tarixiy manbaalarda «rabob», «rebab», «rubob» cholg'usi haqida ko'plab ma'lumotlar uchraydi.

Bunday ma'lumotlarni Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Abdulqodir Marog'iy, Darvish Ali Changiy, Abdurauf Fitrat kabi ko'plab allomalarning asarlarida kuzatish mumkin. XVII asrda Buxoroda yashagan Darvish Ali Changiyning «Musika haqida risola»sida XVI-XVII asrlardagi cholg'ular va sozandalar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. O'sha davrlarda tanbur, chang, qonun, ud, rubob, qobiz, g'ijjak cholg'ulari keng tarqalgan cholg'ulardan hisoblangan.

Sozandalar haqidagi ma'lumotlar orasida mashhur rubobchilar haqida ham so'z yuritiladi. Xususan, «buxorolik Shayx Shamsiy-Rabboniy mohir rubob cholg'uchi, mashhur sozanda sifatida tanilgan. Uning ijrosi tinglovchilarga shu qadar kuchli ta'sir qilganki hech bir kishini befarq qoldirmaydi. Rubobning ohangini eshitib, betakror ijrosidan hayratga tushgan odamlar chor atrofdan to'planaverishgan ekan»⁶.

Lekin bu asarlarda so'z yuritilgan rubob cholg'ulari aynan hozirgi yoki boshqa bir ko'rinishdagi qashqar rubobi ekanligi haqida aniq ma'lumotlar uchramaydi. Qashqar rubobining Shinjon uyg'urlari orasida tarqalgan «do'lon rubobi» nomli turi mavjud. Uning dastasi pardasiz, naqshli fason qulog'i2 hamda uchta asosiy va bir necha rezonator torlari bo'lib, mizrob bilan chalinadigan sozlardan hisoblanadi. Bu cholg'u qadimgi Torin va Yorkent daryosi bo'ylaridagi vohalarda yashagan Do'lon qabilalarining qadimiy cholg'u asbobi hisoblanib, meloddan 4 asr oldin qo'llanilgan degan ma'lumotlar bor⁷.

Xitoy tarixchilari tomonidan yozib qoldirilgan «Tan podsholigi davrining

⁶ Odilov A. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi T., 1995

⁷ Ne'matillo Mo'jazy Tavorixi musiqiyn. Pekin 1982

muhim bayonlari» kitobining jildida «Qashqarlik besh torli rubob ustasi Pilol (Xitoyda uni Pey Shin Fu deb atashgan) rubobni mizrob bilan chaladi va keyinchalik uning bu xilda qadimgi chalish usuli hamma joylarga tarqalib ko‘plab xalqlar, mamlakatlar tomonidan qabul qilingan» degan fikrlar keltiriladi.

Qashqarda yashagan mashhur rubobchilardan Toshvoy rubobchi (1864-1898) qashqar rubobining ommalashishida katta hissa qo‘shgan. Uning ko‘plab shogirdlari etishib chiqqan va «Toshvoy» degan musiqasi hozirgi kunda ham uyg‘ur sozandalari orasida mashhurdir.

Bugungi kunda uyg‘ur xalq musiqa ijrochiligida rubob cholg‘usining «podachi rubob», «qashqar rubob», «do‘lon rubob» va «bas rubob» deb nomlangan 4 turi keng qo‘llanilmoqda. Uyg‘ur qashqar rubobi – uyg‘ur xalqining eng ommalashgan cholg‘usi sifatida shahardan to kichik qishloqlargacha tarqalgan. Uning birinchi tori 1-oktava «do» notasiga sozlanib to‘rttadan oltitagacha rezonator torlari mavjud. Do‘lon rubobi – «qumul rubob» deb ham yuritilib asosiy uchta tori lya-re-lya, lya-mi-lya, kabi sozlanadi. Bundan tashqari o‘ntagacha rezonator torlari bo‘ladi.

Bas rubobi esa re-lya-re, re-sol-re notalariga sozlanib orkestrlarda keng qo‘llaniladi⁵. Bulardan tashqari uyg‘urlarda rubobning 8 torli turi ham mavjudligi haqida ma’lumotlar bor. Ma’lumotlarga qaraganda, XIX asr oxiri XX asr boshlarida ham O‘zbekistonda bu cholg‘u kam uchragan va dastasiga ichak bog‘langan diatonik tovushqatorli cholg‘ulardan biri bo‘lgan.

Mutaxassislarning ta’kidlashlaricha 1936 yilda Farg‘ona vodiysining so‘lim Shohimardon qishlog‘ida bo‘lib o‘tgan xalq saylida mashhur rubobchi M.Mirzaev qashqarlik bir sozandadan rubob cholg‘usini xarid qiladi va Toshkentlik usta Usmon Zufarov bilan birga bu cholg‘uni qayta takomillashtiradilar. Natijada rubobning menzurasini uzaytiriladi, dastasi esa latun qalamchalar bilan pardalarga teng bo‘linib, hozirgi ko‘rinishdagi rubobni yaratadilar.

Rubobning qayd qilingan nusxasi hozir ham ustoz M.Mirzaevning uyida saqlanmoqda. XX asrning 40-50 yillaridan boshlab, Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshida cholg‘ularni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida

professor A.I.Petrosyants boshchiligida eksperimental laboratoriya tashkil qilinib, unda o'zbek xalq cholg'ulari qayta ishlana boshlandi.

Jumladan qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan prima, alt va metstso-soprano turlari yaratildi. Natijada qashqar rubobida o'zbek xalq musiqasi bilan birga ko'plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo'ldi.

Rubob-prima hozirgi kunda amaliyotda orkestr va yakkanavoz ijrochilikda qo'llanilayotgan bo'lsa, qashqar rubobining alt va metstso-soprano turlari qisman maktablarda va orkestr ijrochiligida qo'llanilmoqda.

Rubob primada to'rtta tor bo'lib, birinchi tori ikkinchi oktava MI, ikkinchi tori birinchi oktava LYa, uchinchi tori birinchi oktava RE va to'rtinchi tori kichik oktava SOL notalariga sozlanadi.

Metstso-soprano rubobi esa birinchi juft torlar birinchi oktava LYa, ikkinchi juft torlar birinchi oktava MI, uchinchi tor esa kichik oktava LYa notalariga sozlanadi. Metstso – soprano rubobi birinchi juft torlar birinchi oktava LYa, ikkinchi juft torlar birinchi oktava MI, uchinchi tori kichik oktava SI notalariga sozlanadi.

Alt rubobi esa beshta torli bo'lib, birinchi va ikkinchi torlar juft torlar, uchinchi esa ichak tordan iborat bo'lib, birinchi oktava RE, kichik oktava LYa, kichik oktava MI notalariga sozlanadi. Qashqar rubobining tovushi yozilganidan bir oktava past eshitilsa, yangi yaratilgan ruboblar nota yozuvi balandligiga mos jaranglaydi⁸.


Takomillashtirish natijasida yaratilgan ruboblarni fabrikada keng miqyosda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, bu ruboblarning kosasi yog'och qovurg'alarni biriktirib ishlana boshlandi. Keyinchalik ustalar takomillashtirilgan ruboblarning o'yma kosali turlarini ham yaratdilar⁷. Bugungi kunda rubobning qovurg'ali hamda an'anaviy o'yma qashqar rubob turlari amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

⁸ Petrosyants A.I. "Instrumentovedenie" T., 1990

Qovurgʻali rubob asosan boshlangʻich oʻquv davrida, oʻzining ixchamligi va sozlash imkoniyatining birmuncha engilligi bilan nisbatan qulay hisoblanadi. Anʻanaviy oʻyma qashqar rubobi menzurasi uzunligi sababli tovush jarangdorligi va tiniq sadolanishi bilan ajralib turadi.

Qashqar rubobining dasta qismida asosan 24 ta metall pardalar joylashgan boʻlib, ular rubob tovush qatoriga xromatik tarzda 0,5 tondan qilib joylashtirilgan va tartib boʻyicha bosh qismidan kosa qismiga qarab sanaladi. Dastaning bosh qismi tomonidan yuqori harrak oʻrnatilgan boʻlib, torlar shu yuqori harrak orqali quloqlarga taqiladi. Yuqori harrak ochiq torlarning tayanchi hisoblanadi. Dastaning kosaga tutashgan joyida fason quloqlari mavjud.

Qovurgʻali rubob dastasining uzunligi anʻanaviy oʻyma qashqar rubobiga nisbatan qisqaroq va yogʻoch quloqlar oʻrniga metalldan yasalgan mexanik quloqlar oʻrnatilganligi bilan farq qiladi



Qashqar rubobning kosasi asosan tut daraxtidan, dastasi esa oʻrik daraxtidan yasaladi. Torlarni tortib turuvchi ilmoqlar ham kosa qismida joylashgan boʻlib, ular ham yogʻochdan yoki metalldan ishlangan boʻlishi mumkin.

Rubob kosasi baliq teri bilan qoplanadi va unga harrak oʻrnatiladi. Harrak yumshoq yogʻoch yoki plastmassadan yasalgan boʻlmasligi kerak, aksincha qattiq yogʻochdan va ixcham shaklda boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari harrakning balandligi va torlarning bir-biriga nisbatan joylashuvi ham juda muhim. Torlarning orasi juda tor yoki kengroq boʻlishi mumkin emas, chunki torlar oʻzaro juda yaqin boʻlsa barmoqlar bilan bosilganda

bir-biriga tegib qoladi va aksincha torlar o‘zaro masofasi me’yoridan kengroq bo‘lsa, torlar barmoqlar ostidan chiqib ketishi mumkin. Juft torlar o‘rtasidagi o‘zaro masofa orasi taxminan 3 mm bo‘lsa, birinchi, ikkinchi va uchinchi torlar orali oralig‘i 10-12 mm bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Harrakning balandligi asosan cholg‘uning sadolanishi va pardalarning aniq sozlanishiga muvofiq holda tanlanadi. Bunda torlar dastadan juda ham baland yoki past bo‘lmay chap qo‘l bilan torlarni pardaga bosish uchun qulay darajada bo‘lgani ma’qul. Chunki, harrak baland bo‘lsa juda noqulay, past bo‘lsa ovozning sifati o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi.

Qashqar rubobida asosan beshta tor bo‘lib, ularning to‘rttasi metall va bittasi ipak torlardan iborat. Metall torlar juft-juft qilib, ipak tor esa alohida sozlanadi. Amaliyotda 1-juft torlarning qalinligi 0,23- 0,24 mm, 2-juft torlar esa 0,25-0,28 mm qalinlikda bo‘ladi. Lekin har bir cholg‘u o‘ziga xos bo‘lganligini hisobga olib, bu o‘lchovlarni rubobning ovoz sifati va sozlanishining eng yaxshi holatida tanlash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek qashqar rubobi transport qiluvchi cholg‘u bo‘lib, yozilishiga nisbatan bir oktava past eshitiladi. Qashqar rubobi sof kvarta intervali, kvarta-kvinta va kvinta-kvarta intervallari bo‘yicha quyidagicha sozlanadi:

1) Kvarta intervali bo‘yicha;

1-chi tor kichik oktava LYa

2-chi tor kichik oktava MI

3-chi tor katta oktava SI



2) Kvarta – kvinta intervali bo‘yicha:

1-chi tor kichik oktava LYa

2-chi tor kichik oktava MI

3-chi tor katta oktava LYa



3) Kvinta – kvarta intervali bo‘yicha:

1-chi tor kichik oktava LYa

2-chi tor kichik oktava RE



3-chi tor katta oktava LYa

Qashqar rubobni sozlashda avval LYa tori sozlanib keyin unga mos ravishda boshqa torlar sozlanadi. Torlarning sozlanganligini 1-torda MI notasini (agar kvinta-kvarta sozlangan bo'lsa RE) bosib 2-simning ochiq torlarini chalib oktavani va aksincha 2-torning 5-pardasini (kvinta-kvarta sozlangan bo'lsa 7-parda) bosib unison sozlanishini eshitib ko'rib, tekshirish mumkin. 3-tor ham xuddi shu usulda tekshiriladi.

Bundan tashqari torlardagi ayrim pardalarni oktava oralig'ida sadolanishini albatta tekshirib ko'rish kerak. Chunki, faqat ochiq torlarning oktavasini tekshirish bilan cheklanilsa, torlarning eskirishi yoki pardaning har-xil temperaturada o'zgarishi hisobiga boshqa pardalar soz bo'lmay qolishi mumkin. Bunday holatda harakni oldinga-orqaga surish bilan sozni to'g'rilash mumkin (agar pardalar ochiq torga nisbatan baland bo'lsa harak ilmoqlar tomonga suriladi va aksincha). Agar juft torlardan biri uzilsa albatta yangi juft torlar qo'yish tavsiya etiladi, chunki uzilgan tor bilan uzilmagan torning cho'zilish darajasi har-xil bo'lib torlar bir-biriga soz bo'lmaydi.

O'zbekiston davlat Konservatoriyasi qoshidagi eksperimental laboratoriyada ko'p yillar ijodiy izlanishlar olib borgan usta Usmon Zufarov tomonidan qashqar rubobining quyidagi ko'rinishdagi namunalari yaratilgan. «Toshkent rubobi» (3-rasm), «Tamaraxonim» (4-rasm) va «Qashqar rubob» (5-6 – rasmlar).



Bugungi O'zbekiston va Tojikiston hududlarida qashqar rubobi keng tarqalgan bo'lib, bu cholg'uda shashmaqom asarlari va xalq kuylaridan tortib, kompozitorlar ijodiga mansub bo'lgan murakkab, yirik shakldagi asarlarni chalish imkoniyati mavjud.

O'zbek xalq cholg'ulari orasida torli hamda chertib ijro etiladigan cholg'ularga do'mbira va dutor kiradi. Ushbu cholg'ular o'z ijrochiligi, tabiati, ovoz tarannumi bilan amaliyotda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bilan birga, xalq ijrochilik amaliyotida o'z o'mi va yo'nalishiga ega bo'lib, baxshi va sozandalar qo'lida, o'tmishdan so'zlovchi cholg'ular sifatida o'z mavqeini saqlab kelmoqda.



Do'mbira - torli o'zbek an'anaviy cholg'ularidan biri bo'lib, ayni paytda o'zbek baxshichilik san'atining yetakchi cholg'usi hisoblanadi. Cholg'uning ikki torliligi va turli tovushlarga sozlanib bir paytda ijro etilishidan, uni cholg'u ijrochiligining ancha shakllangan davrida yuzaga kelgan asbob, deb qayd etadi V.Belyaev.

Do'mbira, tanburga nisbatan kosasi katta, dastasi esa kalta, dutorga nisbatan dastasi kalta, kosasi kichkina ikki torii cholg'udir. Kosasining shakli ko'proq tanburga o'xshash bo'lib, asosan tut, yong'oq yoki o'rik daraxtidan o'yib yasaladi.

Uning qopqog'i tut daraxtidan yupqagina qilib yasalgan. Dastasi esa unchalik uzun bo'lmagan va maxsus pardalar ham bog'lanmagan. Cholg'uning ikkita tori bo'lib kvana kichik oktava lya-re yoki lya bemol-re bemol yoki lya-mi yoki lya bemol-mi bemol; kvinta - lya-mi yoki lya bemol-mi bemol oralig'ida sozlanadi. Diapazon ikki oktavani qamrab oladi. Cholg'uning xarragi ham soz jussasiga mos qilib bag'ri qattiq tut yoki yong'oqdan yasaladi.

Do'mbirada ikki tor bir vaqtda chertilishi bilan birga alohida-alohida ham ijro etiladi. Bu ijrochi baxshilarning badihasiga bog'liq. Cholg'u alohida simlarda chertilganda har ikki toridan keng foydalanilishi mumkin. Shu bilan birga chap qo'lni «pisikato» usuli bilan ijro etish uslubi ham keng qo'llaniladi.

O'zbekistonda do'mbira Surxondaryo, Qashqardaryo, Samarqand vohalari baxshi-shoirlarning ijrochilik amaliyotida keng qo'llaniladi.



Dutor - o'zbek an'anaviy chertim cholg'u sozlaridanbiri. Uzoq o'tmishdan xalq ijrochilik amaliyotidan munosib o'rin egallab kelayotgan dutor, ayni paytga kelib an'anaviy ijro uslubiga xos barcha guruhlar tarkibidan joy oldi. An'anaviy yakkanavoz cholg'u sifatida shakllandi va etakchi cholg'ular qatoriga kirdi.

Dutorning Tarixiy shakllanishi va boshqa cholg'ular bilan uyg'unlik jihatlari uzoq o'tmishga borib taqalsada, musiqiy risolalarda XV asrdan boshlab ta'riflanib keladi. «Forobiy ma'lumotlariga qaragan-da, Xuroson tanburi o'zining ko'plab belgilari bilan zamonaviy dutorni eslatadi»⁹. Lekin, dutorning o'z nomi va uning barcha (shakily, tarkibiy, ijroviy) imkoniyatlari bilan ilk bor XV asrda yashab ijod etgan musiqashunos olim Zaynullobiddin al-Husayniy o'zining musiqa ilmiga bag'ishlangan «Qonuni ilm va amah musiqiy» nomli risolasida bayon etgan.

Darhaqiqat, unda ikkita torh va ulaming oralig'i kvarta intervalini tashkil etuvchi, dastasiga bog'langan pardalari o'n bitta bo'lgan dutor cholg'u asbobi ta'riflanadi. Lekin, qayd etish joizki, risolada tavsiflangan cholg'u har tomonlama zamonaviy dutor soziga yaqin. Farq faqat, shaklda deyish mumkin. Chunki tavsiflangan dutorning kosaxonasi hozirgi zamon dutoridan oz bo'lsada kattaroq, dastasi esa qisqaroqdir. Davrlar osha cholg'ular o'zgarish yoki mukammallashish jarayonini o'tashi muqarrardir. Dutor O'rta Osiyoning o'zbek, turkman, tojik, qoraqalpoq xalqlari orasida keng ommalashgan cholg'udir. Qayd etish joizki, har bir xalq dutorining oz bo'lsada, o'ziga xoslik jihatlari mavjuddir.

Dutor - ikki torh cholg'u asbobidir. Odatga ko'ra, tut daraxtidan tayyorlanadi. Cholg'u ikki asosiy qismlarga bo'linadi: a) kosaxona (rezonator); b) dasta. Cholg'uning kosasi 10-12 ta yupqa qovurg'achalami bir-biriga birlashtirib yopishtirish orqali hosil qilinadi va uning ustki qismi maxsus qopqoq bilan


⁹ Matyoqubov O. «Maqomot» 2004, 211-b.

qoplanadi. Cholgʻuning kosasida torlar ilinadigan maxsus moslama, yaʼni ilgichlar oʻrnatiladi.

Dutorning dastasi cholgʻu jussasiga qarab belgilanadi. Unda 14-15 ta pardalar mavjud boʻlib, ular ichak, zamonaviy jarayonda jilka (sunʼiy ip)dan boylanadi va torlari ipakdan eshilib tayyorlanadi. Anʼanaviy dutor pardalari diatonik tovushqator tarkibida joylashgan. Dastaning boshlanish qismida esa, ikkita maxsus quloqlar joylashgan.

Quloqlar iplami tortish va cholgʻuni sozlash uchun qoʻllaniladi. Cholgʻuda ovoz tarannumining sof holda taralishi uchun ikkita xarrak oʻrnatiladi. Cholgʻuning yuqori qismida joylashgan xarrak shayton xarrak deyiladi va birinchi parda bilan quloqlar mobaynida joylashadi. Pastki xarrak maxsus shaklda yasaladi va cholgʻuning sozlanishiga koʻra qopqoq ustiga oʻrnatiladi.

Dutor oʻzbek xalq cholgʻulari orasida oʻzgaruvchan xususiyatli cholgʻular tarkibiga kiradi. Shu bois, bu toifadagi cholgʻularning sozlari (torlari) ijro uchun kerakli parda (tovush)ga sozlanib olinadi. Dutor ijrochilik amaliyotida ijro etilayotgan asarga qarab turlicha, yaʼni kvarta, kvinta, qoʻshtor (unison), oktava va sekunda intervaliga sozlanadi.



Ijrochilik amaliyotida, anʼanaviy ijro uslubida kvinta sozi keng qoʻllaniladi. Kvarta-Tanovor sozi, unison-qoʻshtor, oktava-Bayot sozi nomlari bilan ham yuritiladi.

Sekunda va tersiya intervali asosida sozlash zamonaviy jarayonda judakam qoʻllaniladi.

Dutor cholgʻuning ijroviy diapozoni quyidagicha:



Dutor an'anaviy cholg'ular orasida turli va rang-barang zarblarga boy, nafis va nazokatli, falsafiy ovozga boy cholg'u soz sifatida turli yoshdagi ijrochilar amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi.

O'zbekistonda dutorning xalq an'anaviy va hududiy ijrochilik uslublari mavjuddir. Hududiy uslublarga Farg'ona-Toshkent va Xorazm dator ijrochilik maktablari kirib, har biri o'zining xususiyatlariga ega. Xorazmda esa maxsus dator maqomlari ham shakllangan.

Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalari davri Mahmud Yunusov, G'ulomjon Qo'chqorov, Faxriddin Sodiqov, Zokirjon Obijov, Orif Qosimov, Nurmuhammad Boltayev, Pahlavon Rasulov, Yusuf Jabborov, Turg'un Alimatov, Sayfiddin Yo'ldoshyev, Ismatilla Rahmatillayev, Abdurahmon Hamidov, Malika Ziyoyeva, Ahmadjon Abdurahmonov kabilar doimo xalqimiz e'zozida bo'lib kelganlar.

I-bobga xulosa

O'zbek xalqining musiqiy merosi mazmunan boy va shaklan beqiyosligi tufayli qadim tarixga ega bo'libgina qolmay, o'ziga monand ilm-fani bilan uzviy birlikda taraqqiyot yo'lini kechgan.

Inson dunyoqarashining barcha yo'nalishlariga birdek ta'sir etadigan o'zgarishlar, ilm, madaniyat, san'atda deyarli birdek iz qoldirishi bugungi kunda hammamizga ayondir. Ma'lumki, musiqiy cholg'ular xalqlarning moddiy hamda ma'naviy boyligidir.

O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning bari uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruhga XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.

Qayta ishlangan cholg'u asboblari -rubob, g'ijjak, dator va Chang sozlarining musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlari mezonlariga ko'ra qayta

ishlangan namunalari kiradi. Ijrochilik amaliyotida shakllangan barcha cholgʻu asboblari oʻz xususiyatlari doirasida uch turga boʻlinadi. Torli, puflama va zarbli cholgʻular.

Jumladan qashqar rubobi ham qayta ishlanib, temperatsiyali tovushqatorga asoslangan prima, alt va metstso-soprano turlari yaratildi. Natijada qashqar rubobida oʻzbek xalq musiqasi bilan birga koʻplab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo boʻldi.

Oʻzbek xalq cholgʻulari orasida torli hamda chertib ijro etiladigan cholgʻularga doʻmbira va dutor kiradi. Ushbu cholgʻular oʻz ijrochiligi, tabiati, ovoz tarannumi bilan amaliyotda alohida ahamiyat kasb etib kelgan. Shu bilan birga, xalq ijrochilik amaliyotida oʻz oʻmi va yoʻnalishiga ega boʻlib, baxshi va sozandalar qoʻlida, oʻtmishdan soʻzlovchi cholgʻular sifatida oʻz mavqeini saqlab kelmoqda.

Ijrochilik amaliyotida mohirlik darajasiga erishgan xalq dutorchi sozandalari davri Mahmud Yunusov, Gʻulomjon Qoʻchqorov, Faxriddin Sodiqov, Zokirjon Obijov, Orif Qosimov, Nurmuhammad Boltayev, Pahlavon Rasulov, Yusuf Jabborov, Turgʻun Alimatov, Sayfiddin Yoʻldoshyev, Ismatilla Rahmatillayev, Abdurahmon Hamidov, Malika Ziyoyeva, Ahmadjon Abdurahmonov kabilar doimo xalqimiz eʼzozida boʻlib kelganlar.

II bob. BMSM xalq cholg'ularida o'rgatish uslubiyoti

2.1 BMSM xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyoti asoslari

Mamlakatimizda 2008-2014 yillarga mo'ljallangan “Bolalar musiqa va san'at maktablari moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash” to'g'risidagi Davlat dasturining qabul qilinishi natijasida 300 dan ziyod maktablar qayta ta'mirlanib, yangi binolar qurilib, ushbu maktablar eng zamonaviy moddiy texnika bazasi bilan ta'minlandi.

Bugun Bolalar musiqa va san'at maktablarida yaratilgan shart-sharoitlar yuqori darajada. Eng zamonaviy texnik uskunalar, yangi musiqa cholg'ulari - pianino, royal, bayan-akkordeon, xalq cholg'ulari kabi o'qish uchun zarur bo'lgan barcha vositalar mavjud. Mutaxassislar tomonidan yangi o'quv uslubi qo'llanma va darsliklar yaratildi. Bulardan O.Abdullaevning “Solfedjio”, X.Xasanovning “Mening diyorim”, N.Sharipovning “Chet el musiqa adabiyoti”, O.Nazarovning “Qashqar rubobi”, R.Nigmatovning “Damli cholg'ular ansambli”, B.Abdullaevning “Saksafon”, Z.Muhammadjonovning “Fortepiano ansambl o'qitish uslubiyoti” kabi yangi zamon talablariga to'liq javob beradigan qo'llanmalarni aytib o'tish mumkin.

Xo'sh, bugun BMSMlarda shunday sharoitlar yaratilgan ekan, unda olib borilayotgan ishlar, xususan o'qitish sifati qanday? Bu o'quv dargoxlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi qay ahvolda? Yaratilgan yangi o'quv qo'llanmalar, adabiyotlardan qanchalik samarali foydalanilmoqda?

Tajriba shuni ko'rsatmoqdaki viloyatlarda BMSM o'qituvchilarining aksariyat qismi yangi o'quv qo'llanmalardan to'liq foydalanishmayapti. Yangi qo'llanmadan foydalanish uchun o'qituvchi avvalo qo'llanmani to'liq o'rganib chiqishi kerak. Ayniqsa, cholg'ularda o'qitish bo'yicha yaratilgan qo'llanmalarning nazariy, uslubi qismlariga e'tibor qaratmaslik natijasida faqat no'ta matnlari bilan cheklanayotgan holatlarning guvohi bo'ldik.

Endi no'ta matnlari xususida to'xtalsak. Bugun ijrochilik san'ati rivojlanib,

ijro etiladigan asarlarning darajasi ham ancha yuqorilab ketganligini inobatga olgan holda qo'llanmalarga kiritilgan murakkabroq, zamonaviy asarlarga e'tibor qaratilmayapti. Buning uchun yuqorida aytib o'tilganidek ushbu asarlarni o'qituvchi o'zi o'rganib, ijro qilib chiqishi kerak. Misol uchun ayrim jixatlarni aytib o'tsak. Agar kuy o'lchovi 6/8, 3/8, 7/8 yoki aralash (4/4, 6/4, 5/4, 3/4) kabi o'lchovlarda bo'lsa yoki asar sur'ati juda sekin, tremolali no'talardan tuzilgan bo'lsa va shunga o'xshash no'ta fakturasi murakkab o'noltitaliklar, passajlardan iborat bo'lsa, bunday no'ta matniga ega bo'lgan asarlar chetlab o'tilayapti. O'qituvchilar o'rgatib kelayotgan, ta'bir joiz bo'lsa "siyqasi chiqqan" asarlarni o'quvchilarga berish qulaydek go'yo.

2015 yil fevral oyida O'zbekiston davlat konservatoriyasi "Xalq cholg'ularida ijrochilik" kafedrasidan o'tkazilgan, "Xalq cholg'ulari ijrochiligining zamonaviy omillari" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida kerakli xulosalar e'lon qilindi. Ulardan biri BMSMlari xalq cholg'ularda o'qitish uslubiyotini yaratish kerak, degan taklif bo'ldi. Xo'sh, o'qitish uslubiyotini kim qanday tushunadi. U, ayrimlar o'ylagandek har bir o'qituvchining individual yondashuvimi, yoki qandaydir majburiy talablari mavjudmi? Shu o'rinda, bir voqeani eslab o'tishni joiz, deb bildim. Viloyat musiqa maktablaridan birining o'qituvchisi "Bizdan o'quv ishlari bo'limi boshlig'i Xalq cholg'ulari bo'limining birinchi sinf bitiruvchisi ikkita yirik shakldagi asar chalishi kerak, deb talab qilayapti, shu to'g'rimi?" deb so'rab qoldi.

Xalq cholg'ularida bir yil o'qigan bola qanday qilib yirik shaklda (Sonata, Konsert, Variatsiya, Uvertyura) asar chalishi mumkin? BMSMlarda xalq cholg'ularda o'qitishning har bir sinfga alohida talablar mavjudmi? Mavjud bo'lsa u qanday ko'rinishda tuzilgan?

Bugun xalq cholg'ularida o'qitishda katta yutuqlarga erishilayotgan bo'lsada, ijroda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Ular:

1) O'quvchilarning ijrochilik holatining to'g'ri shakllanganligi yoki kamchiliklar mavjudligi;

- 2) Applikaturaning to'g'ri qo'llanishi;
- 3) Musiqiy bezaklarning noo'rin qo'llanishi yoki noto'g'ri o'rgatilishi;
- 4) Musiqiy jumalarni sezmaslik;
- 5) Tovush chiqarish va uni boshqarish ko'nikmalarining yetishmasligi;
- 6) Faqat tez suratli asarlar asosiy mezonlar sifatida qabul qilinib qolayotganligi kabi kamchiliklardir.

Har bir cholg'u sozini chalishga o'rgatishdagi eng zarur shartlardan biri ijrochilik apparatini tartibga solishdir.

Ijrochilik apparati: keng olganda, xilma-xil tushunchlarni, ya'ni ijrochining o'tirish yoki turish holati va musiqa asbobining joylashtirilishi, chap va o'ng qo'llarining holati harakati, mezrob (mediator), noxun, kamon (smichok), cho'p (changda) ni ushlashni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun chalishga o'rgatishning dastlabki paytlarida amaliy mashg'ulotlarga kirishilar ekan, o'qituvchi o'z shogirdini qo'llarini to'g'ri tutishni, to'g'ri o'tirishni yoki turishiga alohida e'tibor berishi zarur. Sozandaning dastlabki tayyorgarligi davrida o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yilgan xato uning ijrochilik faoliyatida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi.

Sozanda turli musiqa cholg'ularini chalayotganligida qiynalmasligi uchun qulay, shu bilan birga, tashqi tomonidan qaralganda chiroyli va ixcham o'tirishni yoki turishni bilishi kerak.

Mizrob yoki noxun bilan yuqoridan pastga yoki pastdan yuqoriga bir marta zarb berish chertma-torli asboblarda tovush chiqarishning asosiy usullaridir. Tovush chiqarishning mana shu ikki usuli hamda ularni kombinatsiyalash (torlarda faqat pastga, faqat yuqoriga zarb berishni turli izchillikda birlashtirish torlarga berilayotgan zarblar tezligini o'zgartirish va boshqalar) yo'li bilan tovush chiqarishning xilma-xil usullarini hosil qilish va natijada turli tarzdagi musiqa sadosi (masalan, qisqa va cho'ziq, ohangdor va kuchli, qattiq va hokazo tovushlar)ni olish mumkin.

Yosh sozandani tarbiyalashda ilk bor uni musiqaviy dunyoqarashini hisobga

olgan xolda rejali ishlar qilinmog'i kerak. Unda avvallambor o'z qo'lidagi cholg'u soziga mehr uyg'otmoq zarur. Ya'ni o'quvchiga, har-bir sinf uchun rejalashtirilgan dasturga asoslangan xolda, qiyinchilik tug'dirmaydigan oson va yoqimli kuylar tanlab o'rgatish lozim. O'quvchi bilan yakka mashg'ulot vaqtida unga tanish bo'lgan milliy ohanglarni o'rgatish bilan borobar u eshitmagan yoqimli kuylarni chalib berish o'qituvchining vazifalaridan biri hisoblanadi.

Musiqqa cholg'ularimizning har birida o'ziga hos milliy qochirim, nola va xilma-xil zarblarni (shtrixlarni) ijro etish mumkin. Tanbur, dutor, g'ijjak, ud, qonun, chang, qo'shnay va surnay sozlari ana shu imkoniyatlarga egadir.

Ayni vaqtda o'zbek cholg'ularida ikki xil yo'nalishdagi ijro uslubi mavjud.

1. Evropa musiqa ijrochiligiga taqlid qilish uslubi;
2. An'anaviy milliy musiqa ijrochiligining asl uslubi.

Hozirgi yosh ayrim o'zbek kompozitorlarining ijodlariga nazar tashlasak «Evropatsentrizm» g'oyalariga ko'proq amal qilayotganliklariga guvoh bo'lamiz. Bu albatta yoshlarimizni milliy musiqamiz merosidan butunlay bexabarliklaridan va shu borada mutaxassislik bo'yicha ta'lim olmayotganliklaridan dalolat beradi¹⁰.

Xalq bastakorlarining asarlari esa an'anaviy musiqa merosimizga tayangan holda yaratilgan va bunday asarlar yaratilayotganligi hozirda ayrim yosh ite'dodli bastakorlar ijodida o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda.

Endi musiqa cholg'ularimizga kelsak, ularning tavsif (xarakter)li tomoni, cholg'ular ijrochiligida imkoniyatlarni hilma-xilligidir. Ana shu xilma-xil cholg'ularimizning ijrosida yangraydigan va shu cholg'ular uchun yaratilgan alohida kuylar bor desak mubolag'a bo'lmaydi. Milliy cholg'ularining yana bir o'ziga hos tomonlari shundaki ijro imkoniyatlarining bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqligi va mushtarakligidadir.

Cholg'u sozlarimizning ijro imkoniyatlari boy va serqirra bo'lganligi tufayli ular doimo biri ikkinchisini ijrochilik imkoniyati borasida to'ldirib, boyitib keladi.

¹⁰ Qosimov R. An'anaviy ijrochilikdan dars berish uslubiyati T. 2007 25-bet

Masalan: tanbur va dutorda qo'llaniladigan nola, qochirim va zarblarining ayrimlari rubobda, g'ijjak ijrochiligidagi bezaklar udda, satoda, nay ijrochiligiga xos melizmlar esa qo'shnayda qo'llansa bo'ladi va hokazo.

Lekin shunday bo'lsada yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek ayrim kuylar borki, ular nazarimizda ma'lum bir cholg'u sozi uchun yaratilgandek tuyuladi.

Aplikatura musiqa asbob (cholg'u)larida barmoqlarning joylashishi usuli va tartibidir. Har bir sozanda badiiy chalishining asosiy shartlaridan biri barmoqlarini pardalarda maqsadga muvofiq joylashtirish usuli va ularni ma'qul tarzda almashtirish tartibi sifatida qulay aplikaturani qo'llashdan iboratdir.

Qulay aplikatura usullari ijroning ifodaliligini kuchaytiradi. Cholg'u asbobining koloritik (o'ziga xoslik) imkoniyatlarini to'laroq ochib berishga zamin yaratadi.

Pozitsiyalar esa har bir cholg'u asbobiga xos bo'lishi bilan birga, har bir sozda turlicha holatga ega.

Masalan: ruboblarda, udda, g'ijjaklardagi pozitsiyalarning bir tordagi hajmi birinchi ko'rsatgich barmoq bilan to'rtinchi jimjiloq o'rtasidagi masofa bilan belgilanadi.

Pozitsiyalarga doir ma'lumotlarni olishda har bir cholg'u asboblari uchun maxsus yozilgan darsliklar va o'quv qo'llanmalarga murojat etishni tavsiya etiladi.

Har bir cholg'uda musiqa asari ijro etishdan oldin asarlar tovushqatorlari asosida mashqlar chalish zarur. Rubob, dutor, qonun, nay, qo'shnay kabi cholg'ularda asarlar mazkur sozlarga moslashtirilgan holda ijro etilishi mumkin. Bu esa etuk sozandalarimiz ijrochilik faoliyatlari davomida olib borgan ijodiy izlanishlari orqali bizga ma'lum. Yosh sozandalarga (turli xil cholg'u mutaxassisligi bo'yicha) saboq berish jarayonida fonotekadan qay tarzda foydalanish kerakligini o'qituvchi tushuntirishi maqsadga muvofik.

Bunday mashqlarni nota yozuvida har bir mutaxassis o'qituvchi turli ritmik o'lchovlarda, o'quvchining ijro imkoniyatlarini inobatga olgan xolda nota daftarga yozib berishi yoki tayyor yozilgan mashqlarni tavsiya etishi mumkin. Mashqlardan so'ng o'quvchi rejasidagi asarlarni biri ustida ish olib borish mumkin.

Ustozlar an'anasidan bizga ma'lumki hoh yakka, hah ansambl ijrochiligi bo'lmasin hech qachon bir joyda qotib qolgan emas. U hamma vaqt rivojlanishda yashab kelgan. Ana shunday rivojlanishiga, ijro saviyasini oshib borishiga sabablaridan biri ustozlarimizning yosh avlodga bo'lgan talabchanligi va g'amxo'rliigi bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, BMSMlarda xalq cholg'ularida o'qitish uslubi-yotini yaratish nafaqat Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, balki musiqa maktablarining etakchi o'qituvchilari ham izlanishlar olib borishi vaqti keldi.

2.2 BMSM da xalq cholg'ularida ijro mahorati

Musiqa asboblari chalish bolalarga olam-olam quvonch baxsh etadi. Cholg'u asboblari o'zining tashqi ko'rinishi, shakli va jarangi bilan bolalarda katta qiziqish uyg'otadi. Cholg'uchilik faoliyati tufayli bola tovushlar olamini kashf etadi, tovushning ifoda xossalari orqali atrofdagi voqelikni anglashga ko'maklashadi. Musiqa chalishdan asosiy maqsad – bolaning musiqiy qobiliyatlarini, uning musiqiy cholg'ulari bilan munosabatini, ijrochilik faoliyatiga qiziqishini namoyon etish va rivojlantirishdir.

BMSM cholg'u asboblari o'rgatish sinflari boshlang'ich davrida bolalarni zarbli: doira, quticha, safoil, nog'ora, torli soz, qonun, dutor, qashqar rubobi, tanbur chalishga o'rgatish maqsad qilib qo'yilganligi uchun ularga cholg'u asboblari xaqida to'liq ma'lumot berib borish, musiqay savodini oshirish, turli mashqlar o'rgatish asosida musiqiy asarlar o'rganiladi.

Musiqa asboblari bilan tanishtirish boshlangani tufayli bolalar zarbli va torli asboblarni chalishga oid dastlabki ko'nikmalarni egallaydilar. Shunga qaramay, bolalarning qobiliyatlarini aniqlash maqsadida tashxis o'tkaziladi, uning natijalari o'quvchilarning individual imkoniyatlari haqida xulosaga qilish, yakka tartibda olib boriladigan ishlarni belgilash zarur.

Tanlangan tematik adabiyotlar, didaktik vositalar mashg'ulotlarni yuqori

saviyada tashkil etish va o'tkazishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bolalar uchun yozilgan eng yaxshi asarlardan iborat musiqiy fonoteka, video yozuvlar fondi shakllantirish, shu asosda repertuar tanlanadi.

Dastlab bolalar bilan tovush qatoriga ega bo'lmagan zarbli cholg'ulardan doirada ritmik mashqlar o'tkazish zarur. Bu bosqichda asosiy vazifa bolalarni oddiy musiqiy ritm sur'atini berishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Quyidagi tartibda ish olib boriladi: bolalar avval, ritm usulini og'izda bum-bak bo'g'inlar bilan gapirib beradi, keyin ritmik suratni chapak bilan qo'shadi, so'ng uni musiqiy asboblarda qaytaradi. Kuy tovushlari uzunligi nisbatlarini anglash uchun ularni keng va tor tasmalar yordamida modellashtirishdan foydalanish mumkin. Bunda tovushlar uzunligini aniqlashga qaratilgan didaktik o'yinlardan keng foydalanilsa. Bolalarda paydo bo'layotgan ritm tuyg'usini mustahkamlash uchun musiqiy asboblardan bolalar kundalik hayotida keng foydalanishga harakat qilishlari lozim.

Navbatdagi bosqich bolalarni tovush qatoriga ega bo'lgan musiqiy asboblarni chalishga o'rgatish bo'ladi. Buning uchun cholg'u asbobini to'g'ri ushlash xolatini o'qituvchi tomonidan o'rgatish sanaladi. Tabiiyki, bu anchagina qiyin vazifani hamma bolalar ham birdan va birdek uddalay olmaydilar. Shu sababli, yakka tartibda ish olib boriladi. Bolalar bitta tovushga qurilgan turli kuylarning ritmik sur'atini berishga o'rgangani va cholg'u asbobini chalish malakalarini egallaganidan keyin ikkita qo'shni tovushga qurilgan ohang matnlarini o'rganishga kirishiladi.

Bolalarga tovushlarning balandligiga ko'ra joylashishini tushunishni osonlashtirish uchun tovush-doirachalarni ko'rgazmali qurollar asosida turli balandlikda qo'yish, kuylash, kuy harakatlarini qo'l bilan ko'rsatish, didaktik qo'llanma va o'yinlardan foydalaniladi. Cholg'u asbobda chalish usullarini oson o'zlashtirgan bolalarga hajm jixatidan kattaroq rejaga asoslangan dastur bo'icha asarlar berish mumkin.

Bolalarni dutor, qonun, soz, qashqar rubobi, tanbur chalishga o'rgatish ham murakkab vazifa. Avvalo, bolalar to'g'ri o'tirish va asbobni to'g'ri ushlashga o'rgatiladi. BMSM boshlang'ich sinfining birinchi darslarida bolalar faqat chertib, mediatr bilan erkin, o'ng qo'li bilan chalishga o'rganadilar. Chalish vaqtida bolalar

torlarni barmoq uchi bilan bosadi. Dastlab, musiqani eslab qolishni osonlashtirish uchun notalarni ifodalaydigan rangli doirachalardan foydalanilsa, keyinroq bolalar bu vazifani rangli «aytib berishlarsiz» mustaqil uddalashadi¹¹.

Bolalar musiqiy asar ijrosini qiyoslash imkoniga ega bo'lish uchun musiqa rahbari ijrosida va klassik kuylarni simfonik orkestr, xalq kuylarini xalq cholg'u ansambli ijrosida (DVD va CD yozuvlar orqali) tinglashdi. Bu asarlarni ijro etish uchun asboblarda chalish taklif qilindi. Dastlab bolalarga o'zlari istagan asbobni chalishga ruxsat berildi. Hamma kuy yoki qo'shiqning partiyalarni yakka tartibda o'rganib, ijrochilar ansamblga birlashtirildi. Ansambl uchun repertuarlarni to'g'ri tanlay bilish zarurdir, chunki kichik musiqiy asarlar bolalar uchun tushunarli, ya'ni sodda, yoqimli bo'lishi lozim. Muvofiq va aniq chalish, faqat o'z ijrosini emas, balki barcha o'rtoqlarining ham ijrosini eshitishni o'rganish uchun ko'p marta repetitsiya qilishga to'g'ri kelar edi. Mashg'ulotlarning mantiqiy yakuni ansamblning kontsertda ishtiroki bo'ldi.

O'zbek xalq cholg'ulari ansambli mashg'ulotlarida bolalar nafaqat asboblarni chalishni o'rgandi, balki boshlang'ich nota savodxonligini o'yinli va qulay shaklda o'zlashtirdi.

Musiqa chalish bolalarning tovush balandligi, uzunligi (davomiyligi)ni ongli idrok etishi va qayta yaratishiga ko'maklashib, ularning tovush balandligi, metodik eshitish qobiliyati, musiqiy xotirasi, ritm hissi va ijodiy musiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

Ta'kidlash kerakki, bolalar musiqa cholg'ularini chalishi xotira, iroda, diqqat kabi psixik jarayonlarni faollashtiradi, tortinchoqlik, uyatchanlik kabi sifatlarni engish, o'ziga ishonch, mustaqillikni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Musiqa chalish jarayonida bolalarda kommunikativ sifatlar, musiqiy muloqotga bo'lgan ehtiyoj, sabot, maqsad sari intiluvchanlik, qat'iyat rivojlanadi. Musiqa chalish jarayonida harakatlar va barmoqlar mayda motorikasi rivojlanadi, moslashadi, ishchanlik qobiliyati ortadi. N.A. Vetlugina, G. I. Novikova kabi muttaxassislarning

¹¹ Азимов Б. “Халқ чолғулари бошланғич таълим тизимининг амалий ва услубий вазифалари” Халқаро илмий-амалий конференциясининг мақолалар тўплами Т. 2015

fikricha, musiqa chalish, eshitish va ovoz muvofiqligi (koordinatsiyasi) bolalar uchun juda foydali.

Musiqa chalish yana shunisi bilan ahamiyatliki, u turli sharoitlarda: mashg'ulot davomida, mustaqil musiqiy faoliyatda, bolalarning shaxsiy tashabbusi asosida turlicha o'zgarishi mumkin. Umumiy qiziqish, moyilliklar, har kunlik mashg'ulotlar bolalarni birlashtiradi, jamoaviylik ruhini takomillashtiradi.

Shunday qilib, musiqa **cholg'ularini chalish o'sib kelayotgan avlodning barkamol rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda musiqa san'atining barcha yo'nalishlarini rivojlantirish, iste'dod egalarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga alohida e'tibor berilmoqda.**

Prezidentimizning 2008 yil 8 iyuldagi "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori ijrosi natijasida mamlakatimizning barcha hududida jahon andozalariga to'liq javob beradigan muhtasham san'at koshonolari bunyod qilinib, foydalanishga topshirildi. O'g'il-qizlarimiz zamonaviy ta'lim muassasalarida har tomonlama puxta bilim olib, respublika hamda jahon miqyosida uyushtirilayotgan turli ko'rik-tanlovlar, ijodiy uchrashuvlarda betakror va boy madaniy merosimiz namunalarini xalqaro jamoatchilik e'tiboriga havola qilmoqdalar.

Bu borada BMSM va umumta'lim maktablarining "Musiqa madaniyati" darslari ham o'quvchilar ta'lim-tarbiyasida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Chunki, Respublikamizda ro'y berayotgan o'zgarishlar barcha sohalaridagi kabi bo'lajak pedagoglarning zimmasiga ham o'ta mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Musiqa madaniyati fani birdaniga shakllangan emas, balki murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu ta'lim mazmunida har bir xududning san'ati, musiqa madaniyati, urf odatlari, marosimlari, badiiy an'analarida o'z ifodasini topgan. Hayotni atrofdagi go'zallikni anglamay turib, to'laqonli badiiy ijodni amalga oshirib bo'lmaydi.

Musiqa san'ati estetik idrokning bitmas tuganmas manbai hisoblanib, inson yuragi va aqlini zabt etuvchi maftunkor dunyodir. Inson doimo

go‘zalikka intilishi va kundalik hayotda shu go‘zallik qoidalariga amal qilishi lozim. Musiqaviylikning rivojlanishi tufayli bolalar musiqa obrazlari va ularning atrofdagi qo‘shimcha obrazlarni yorqin his eta boshlaydilar. Bu esa o‘z navbatida, ularning tevarak-atrofni bilishda, estetik baholashni tarbiyalashda, badiiy did, musiqaga muhabbatni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Bolaning musiqaviyligi uning faol musiqaviy faoliyati orqali tarbiyalanadi.

O‘qituvchi mashg‘ulotlarda bolalar diqqatini jalb etish va yo‘naltirish orqali qabul qilayotgan narsalar haqida o‘ylash, taqqoslash, qiziqish, taxlil qilish, uyushishga yordam beradi. Natijada bolalarda musiqa mazmuniga tushunarli munosabatda bo‘lish shakllanadi, musiqani tinglashga ishtiyoq tug‘iladi. Musiqa orqali beriladigan kayfiyat, ularda javob kayg‘usini uyg‘otish kerak.

Emotsional jonkuyarlikni tarbiyalash yo‘llari turlicha. Mohir metodik usullar orqali bolalarni musiqa asarlarini o‘zlashtirishga jalb qilish mumkin: ashula aytish, raqs, o‘yinlar, musiqa maktablarida o‘qiyotgan o‘quvchilar cholg‘uda ijro etish kabilar. Emotsional jonkuyarlik avvalgi tajriba bilan chambarchas bog‘liq. O‘quvchi qanchalik tanish musiqa asarini tinglasa, shunchalik u musiqaviy faoliyatda faol hamda maqsadga yo‘nalgan holda ishtirok etadi. Suhbat esa, musiqaga yanada ongliroq munosabatda bo‘lishga yordam beradi. O‘yinchoqlar, rasmlar, she‘riy va obrazli so‘zlar qo‘llanishi, musiqa orqali ko‘zg‘atilgan kuy ohngini eslab qolishni chuqurlashtiradi, shu asosda musiqani yanada nozik idrok etish ortadi. O‘z navbatida, ular bolaning aktiv faoliyati hisoblangan qo‘shiq aytish, ijro harakatlarida mustahkamlanadi. Musiqaviy asarlarni idrok etish masalasiga e‘tibor qaratamiz.

Musiqani idrok etish ilk qadamlardan boshlanadi, to‘plangan emotsional musiqaviy taassurotlar qo‘shiq aytish, muzika cholg‘ularida ijro, bolalar xalq qo‘shiqlarini aytishga olib keladi. Hissiyot, eshitish, idrokning rivojlanishi asosida bolalarda musiqaviy taassurotlar to‘plana boshlaydi. 7 yoshli bola musiqaning mazmuniga qarab qayg‘uradi va fikr yuritadi. Biz bola oldiga musiqani idrok etish holatini tayyorlaymiz va tashqi ta‘sir etish orqali musiqaviy taassurotlarni jamlashga erishamiz.

Musiqqa idrokini tarbiyalash quyidagicha kechadi:

1. Musiqqa materialini ajratib olish.
2. Tarbiya va ta'lim metodlarini sistemalashtirish.
3. Ish jarayonida turli bosqichlaridan foydalanish.
4. Musiqqa asarlarining turli mavzularidan foydalanish
5. Musiqqa asarining oddiydan – murakkabga yo'naltirgan holda, (obrazlar soni, shakli, karakteri va b.) asta-sekin tashkil etish.

Bolalar diqqatini musiqqa ifoda vositalariga qaratish yo'li bilan rivojlantiriladi. Musiqqa asarlarini taxlil qilish orqali bola musiqaning o'ziga xos "tilini" ajrata boshlaydi - musiqaning karakteridagi obrazlar bilan bog'liqlik, emotsional kayfiyat (lirika, marsh, bardamlk, tantanavorlik, raqs va boshqalar).

O'qituvchi bolalarda faollikni vujudga keltirish uchun asarining obrazli mazmunini yoritib berishi kerek, bu bolada paydo bo'ladigan hayolni uyg'otadi, obrazlarni his etishga chaqiradi, sujet asosida fikrlash, musiqqa asari dasturini tasavvur etishga jalb qiladi. So'z orqali natijani ifodalash va asarga baho berish o'qituvchining mohir rahbarligi ostida asta-sekin badiiy-musiqaviy didni paydo qiladi. Shunday yo'nalishda olib borilgan mashg'ulotlar natijasida musiqani idrok etish, emotsional tushunish shakllanadi.

Musiqqa asboblarda musiqqa chalish shunisi bilan ahamiyatliki, u turli sharoitlarda - mashg'ulot jarayonida, mustaqil musiqiy faoliyatda, bolalarning shaxsiy tashabbusi asosida turlicha o'zgarishi mumkin. Umumiy qiziqish, har kunlik mashg'ulotlar bolalarni birlashtiradi, jamoaviylik ruhini shakllantiradi.

Darsliklarning yaratilishi bu sohadagi katta yutuqlardandir. Yaratilgan bu ta'limiy hujjatlar hozirgi davr o'quvchisining badiiy-estetik didini tarbiyalashda munosib o'rin egallab kelayotgan bo'lsa-da, uni yanada takomillashtirish navbatdagi masala bo'lib hisoblanadi. Bugungi yutuq sifatida barcha ta'lim dasturlarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanilganligini ko'rsatish mumkin.

2.3 O‘zbek xalq cholg‘ularida shtrixlar va ularni ijro etish usullari

Musiqada shtrixlar badiiy asarning mohiyatini, xarakterini va badiiy ifodaliligini ochib beradigan ijro usulidir. Ayrim adabiyotlarda shtrix, «tovush chiqarish usuli» deb ham ataladi. Ayni bir paytda shtrixlarni har birini alohida olib izohlaganda tovush chiqarish usuli bo‘lsa, badiiy asar ijrosida esa ular majmuasi ijro usullari ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Cholg‘u ijrochiligi bu ijodiy jarayon. Chunki ma’lum bir musiqiy jumlaning har-xil shtrixda chalib ko‘rilgandan keyin o‘sha jumlaning ochib beriladigan shtrix tanlanadi.

Musiqiy pedagogika va musiqashunoslik sohasidagi izlanishlar, kompozitorlarning ijodi va umuman musiqaning rivojlanishi hozirgi zamon cholg‘u ijrochiligining va shu bilan birga ijro usullarining ham rivojlanishiga asosiy sabab bo‘lmoqda.

Shtrix ustida so‘z yuritish ekanmiz, ijrochilikda ularning ahamiyati juda muhimligini ta’kidlab o‘tmoqchimiz. O‘qituvchi o‘quvchiga yangi, notanish asarni o‘rgatish ekan uning har bir jumlasini qanday shtrixda chalish maqsadga muvofiqligi ustida jiddiy o‘ylab ko‘rish kerak. Chunki pedagogik tajribadan ma’lumki, qashqar rubobida boshqa cholg‘ular uchun yozilgan xilma-xil asarlar ijro etiladi. Demak, bunday asarlar qashqar rubobida ijro etilganda shunday shtrixlar tanlanishi kerak-ki, asarning ijrosida uning badiiy mohiyati zarar ko‘rmasin.

Endi qashqar rubobidagi shtrixlarni birma-bir ko‘rib chiqamiz. Tovush chiqarish usuli deb ataganimiz pastga va tepaga beriladigan zarblar nafaqat qashqar rubob ijrochiligida balki barcha mizrobli cholg‘ularning asosiy shtrixlaridan biridir. Ular qolgan barcha shtrixlarning asosi bo‘lib xizmat qiladi. Pastga va tepaga beriladigan zarblar haqida «tovush hosil qilish» bobida to‘xtalib o‘tgan edik.

Ma’lumki, qashqar rubobida kuychan, mayin asarlarni chalishda tremolo – ya’ni rez usulidan foydalaniladi. Rez pastga va tepaga zarb berishning tez va uzluksiz almashinishidan hosil bo‘ladigan shtrixdir. Bu usulni kata cho‘zimli

notalarni asta-sekinlik bilan tremolo qilib chalib o'zlashtirish lozim. Rezning yaxshi o'zlashtirilishi pastga va tepaga urish ko'nikmalarining qanchalik o'zlashtirilishiga bog'liq. Bunda albatta o'ng qo'lning erkinligini ta'minlash kerak. Pastga va yuqoriga berilgan zarblarning bir tekisda bo'lishiga o'ng qo'lning faqat panja qismi bilan bajarilgandagina erishish mumkin. Ayrim asarlarda chap qo'l bilan torni tebratish rezning xarakterini ochib beradi.

Lekin bu tebranish ma'lum me'yorda bo'lishi kerakki, shu orqali rezning mayinligiga erishiladi va aynan shu usul bilangina kuyning xarakteri ochiladi. Quyidagi misollarda to'lqinsimon belgi qo'yilgan notalarni tebratib chalish namunasini ko'rishimiz mumkin. Bu shtrix nafaqat sekin sur'atli kuylarda yoki katta cho'zimli notalar ijrosidagina emas, balki tez sur'atli, virtuoza asarlarda ham keng qo'llaniladi.

Shuning uchun rezni pastga urish bilan boshlab, yuqoriga va pastga urish bilan tugallash kerak. Birinchidan agar rez pastga urish bilan tugallansa, tovushning oxirida ortiqcha zarb berilmasligi va tovushning yoki musiqiy jumlaning oxiri baland ovozda tugallanib qolmasligiga erishishimiz kerak. Bunday holat quyidagi misollardagi kabi ko'pincha sekin sur'atli asarlarda va oxiri rr chalinib tugallanadigan tovushlarda uchraydi.

Ikkinchidan tez sur'atli yoki «legato» ya'ni bir necha taktdan iborat tovushlarni ham bir-biriga bog'lab chalinganda rezning yuqoriga uzilishi keyingi musiqiy jummalarni yana pastga zarb bilan boshlashga imkoniyat yaratadi va o'ng qo'l harakatining engilligiga, oxir oqibatda esa ijrochining uzoq vaqt charchamay chalishiga zamin yaratadi.

Bunda o'ng qo'lning holati ikkala torning o'rtasida tutilishi va ikkala torga urilgan zarblar teng bo'lishi hamda chap qo'l barmoqlari pardalarni juda yaxshi sezishi natijasida tovushlarni tekis, ravon va bir-biriga bog'langan holda eshitilishiga erishish mumkin. Odatda, o'quvchilarda torlardan birining ovozi balandroq chiqib qolishi ko'p kuzatiladi. Bunga rez shtrixi ko'nikmalarini etarli o'zlashtirilmaganligi va o'ng qo'l harakatlarining siqiq holatlari sabab bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari o'ng qo'lning bosh barmog'i va ko'rsatkich barmog'i mizrobni juda yaxshi boshqara bilishini ta'minlash uchun uni nazorat qilib turish kerak. Kuy xarakteri va sur'atining keskin o'zgarishida va tordan - torga o'tish yoki birdaniga ikkala torda rez shtrixida ijro etish holatlarida ham bu juda katta ahamiyatga ega. Musiqa ijrochiligida nafaqat katta cho'zimli tovushlar, balki bir tovushni uzib-uzib rez chalish holatlari juda ko'p uchraydi. Bu rezning – «qisqa rez» deb ataladigan turidir.

Qisqa rezni ijro etganda o'ng qo'l harakatining engil bo'lishi muhim. Chunki bunda har bir rez alohida uzilgan, ya'ni mizrobni tordan olish bilan emas, balki tovush cho'zimi tugagach, mizrobni bir oz tepaga ko'tarilishi va keyingi rezni davom ettirish yo'li bilan ijro etiladi. Qisqa rez albatta tepaga uzilishi bilan o'ziga xos bo'lib, bu rezning oxirida zarb berilmasligiga va engil bo'lishiga, shuningdek o'ng qo'lning qotib qolmasligiga olib keladi. Bunday usul ko'proq kompozitorlar ijodida sinkopali jummalarni ijro etganda va xalq kuylarining ayrim namunalarida ishlatiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, rez va qisqa rez shtrixlari barcha musiqiy asar ijrosida bir xil xarakterga ega emas. Yuqorida ta'kidlaganimizdek qashqar rubobida shashmaqom kuy va ashulalari, xalq kuylari bilan bir qatorda jahon klassik musiqa namunalari, zamonaviy kompozitorlar asarlari ijro etiladi. Shashmaqom namunalaridagi rez bilan xalq kuylaridagi rez va kompozitorlar asarlaridagi rezlar xarakteri boshqa-boshqadir. Bunga nafaqat tremolo chalish ko'nikmalarini o'zlashtirish bilan, balki har xil yo'nalishdagi asarlarning mazmun mohiyatini teran anglash bilan hamda qashqar rubob ijrochilik maktablari yoki yo'nalishlarini puxta egallash bilangina erishish mumkin.

Mizrobli cholg'ularda o'ziga xos ijro usullaridan biri teskari zarb usulidir. Musiqa taktlarining kuchli hissalar bilan zarb aktsentining mos kelmasligi teskari zarb usulini keltirib chiqaradi. Quyidagi misollarda kompozitorlar asarlarida va ijrochilik tajribasida uchraydigan teskari zarblarning bir nechta turini uchratish mumkin:

Bunda zarblarning yig'indisi ma'lum sinkopali metro-ritmik shaklni hosil

qiladi. Teskari zarb shtrixini ijro etishda zarblarning pastga-tepaga urilishida qiyinchiliklar ko‘zga tashlanadi. Chunki, ko‘pincha teskari zarb kuyning tayanch tovushlaridan birida kvarta, kvinta va oktava intervallari oralig‘idagi akkordlar usulidan iborat bo‘ladi. Usulning pastki tovushi ikkinchi torda ijro etiladi. Ma’lumki, zarblar almashinuvining ikkinchi torga to‘g‘ri kelishi va uning tepaga urilishi birmuncha noqulaylik keltirib chiqaradi. Bunday holatda zarblar hammasi pastga urilib, aktsentlarni ajratib ko‘rsatish kerak. Teskari zarb usulini yaxshi o‘zlashtirish maqsadida quyidagi mashqlarni tavsiya qilamiz.

Ushbu va shunga o‘xshash mashqlarda pastga-tepaga berilgan zarblarning har-xil torlarga to‘g‘ri kelishi faqat teskari zarb usulini o‘zlashtirishda emas, balki murakkab asarlarni ijro etishda ham o‘z samarasini beradi deb o‘ylaymiz.

Bastakorlar R.Tursunovning «Nozi karashma» va M.Mirzaevning «Dilrabo» kuylaridan keltirilgan parchalarda teskari zarb usulining keng qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin. «Dutor bayoti»da rubob LYa-MI-LYa, «Dilrabo» kuyida esa LYa-RE-LYa notalariga sozlangan bo‘lib, teskari zarb aynan MI va RE notalarida hamda ochiq torlarda amalga oshiriladi.

Qashqar rubobida ko‘p qo‘llanadigan shtrixlardan yana biri bu triolli shtrixdir. Triolli shtrix musiqada juda ko‘p uchraydi. Trio – (lotincha. «Tres» – so‘zidan)– uch notadan tuzilgan maxsus ritmik shakl bo‘lib, uning uzunlik miqdori shu turdagi, odatda ikki notaga teng¹². O‘zbek musiqasida bu «ufori» deb ham yuritiladi. Triolli shtrix zarblarining turli tomonlarga urib chalinishining guvohi bo‘lamiz.

Bu usulni chalishda ovoz sifatiga erishish uchun qashqar rubobining 3-torida mashq qilish yaxshi samara beradi. Chunki, 3-torning birmuncha qalinligi va bu torda chalishning qiyinligi, hamda qolgan 2-torga nisbatan yuqoriroqda joylashganligi o‘ng qo‘lning imkoniyatlarini maksimal sarflashga majbur qiladi. Bunday mashqdan keyin esa 1- va 2-torlarda triolli shtrix chalish ancha yaxshi o‘zlashtiriladi.

¹² Akbarov I.A. “Muzika lug‘ati” T., 1987

Тез



Yuqoridagi triolli shtrixlarni chalishda triol tovushlarining tekis va tovush balandligining bir xil chiqishi muhimdir. Shunday bo'lsada J.Rossinining «Tarantella», G.Gavrilinning «Anyuta» asarlarida zarblarning keskinligi, tovushning qisqaligi bilan xarakterli bo'lsa, A.Mansurovning «Muqadimma», hamda «Xorazm lazgisi» kabi o'zbek kuylarida esa zarblar u qadar keskin bo'lmay, tovushlarning nisbatan yumshoqroq chalinishi bilan ajralib turadi. Chunki o'quvchilar bunday shtrixli asarlarni ijro etganlarida yuqoriga berilgan zarb tovushining to'laqonli chiqmasligi va chalingan har uch tovushning tizimi jihatidan tekis eshitilmasligi, ko'p kuzatiladi. Triolli shtrixni uzluksiz tez sur'atli asarlarda chalish birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Bunda chap va o'ng qo'llarning bir-biriga mutanosib harakat qilishiga erishish kerak. Buni sekin sur'atda asta-sekin mashq qilib o'zlashtirishga e'tibor berish zarur.

Yuqorida biz asosiy ijro shtrixlarini ko'rib chiqdik. Bu shtrixlar mizrobli cholg'ularga, xususan qashqar rubobiga xos bo'lgan ijro shtrixlari edi.

Endi musiqada mavjud bo'lgan stakkato, legato kabi musiqiy shtrixlarni ko'rib chiqamiz. Bu shtrixlar cholg'ular turidan qat'iy nazar musiqada aniq qilib belgilangan bo'lib, ular shu musiqiy asarning mazmun-mohiyatini, xarakterini ochib berib, uning badiiy ifodaliligini oshiradigan asosiy omillardan biridir. Bu musiqiy shtrixlar fortepiano, chang, g'ijjak, nay, rubob, skripka kabi barcha

cholg'ularda shu cholg'ularning boshqa ijro shtrixlari yordamida amalga oshiriladi. Quyida biz bu shtrixlarni qashqar rubobida ijro etish usullarini ko'rib chiqamiz.

Legato (it. «legato» – «bog'lab», «silliqlab»)¹³ – kompozitor tomonidan belgilangan bo'lib, uni aynan legato ya'ni tovushlarni bir-biriga bog'lab chalish kerak bo'ladi. Legato tovushlarni ma'lum bir mazmun ostiga birlashtiradi. Buni amalga oshirish qashqar rubobida rez usulida yoki torni mayin, yumshoq zarb bilan urish usulida amalga oshiriladi.

O'quvchiga shu jumlaning yoki legato qo'yilgan qismning mazmunini ochib berish muhimdir. Buni idrok eta olgan o'quvchi zarb bilan urib chalinadigan tovushlarning ham bir-biriga ulanib eshitilishiga erisha oladi.

Stakkato (it. «staccato» – «uzib-uzib»)¹⁴ – eng xarakterli usullardan biridir. Bu bir qarashda juda oddiy bo'lib ko'rinadi. U torni mizrob bilan keskin urib, chap qo'l barmoqlari yordamida tordagi ovozni keskin o'chirish orqali amalga oshiriladi. Lekin **ff** chalganda ham **rr** chalganda ham stakkato usuli qo'llaniladi. Bunday holda ham tovushning qisqa, aniq va shiddatli bo'lishini seza bilish muhimdir, ya'ni **ff** chalganda mizrobning o'rtasi bilan qattiq chalinsa, **rr** da esa mizrob uchi bilan nisbatan past ovozda keskin urib bunga erishish mumkin. O'ng qo'l harakat amplitudasining qisqa bo'lishi tovush keskinligini ta'minlab beradi.

Yuqorida biz ijro shtrixlari hamda musiqiy shtrixlarni va ularni ijro etish usullarini ko'rib chiqdik. Ta'kidlab o'tganimizdek bu shtrixlar har bir asarda o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, o'sha asarning mazmun – mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ayni paytda muayyan asar ijrosida esa xilma-xil shtrixlar yig'indisini kuzatishimiz mumkin.

¹³ Kruntyaeva T.S, Molokova N.V. «Slovar inostrannix muzikalnix terminov» L., 1987

¹⁴ Evdokimov Yu, Ahmedov I. Ruscha-o'zbekcha qisqacha musiqa terminlar lug'ati. T., 1970

Мирзадавлат

Ўзбек халқ куйи

Тезроқ



Keltirilgan misollardagi «stakkato» shtrixlari har qaysi kuyda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, sozanda bu shtrixni ijro etishda asarning xarakteridan kelib chiqishi lozim.

Badiiy ijroda shtrixlarning aynan xilma-xil almashinuvi ijrochidan bilim va mahorat talab etadi. Shtrixlarni ijro etishda musiqa turli xarakterda keskin o‘zgarish holatlarida va umuman ma’lum musiqiy jumlani to‘liq ochib berishda har bir shtrixni o‘z vaqtida, to‘laqonli ijro etish asosiy shartlardan biridir.

II-bobga xulosa

Mamlakatimizda 2008-2014 yillarga mo‘ljallangan “Bolalar musiqa va san’at maktablari moddiy texnik bazasini yanada mustahkamlash” to‘g‘risidagi Davlat dasturining qabul qilinishi natijasida 300 dan ziyod maktablar qayta ta’mir lanib, yangi binolar qurilib, ushbu maktablar eng zamonaviy moddiy texnika bazasi bilan ta’minlandi.

Bugun Bolalar musiqa va san’at maktablarida yaratilgan shart-sharoitlar yuqori darajada. Eng zamonaviy texnik uskunalar, yangi musiqa cholg‘ulari - piano, royl, bayan-akkordeon, xalq cholg‘ulari kabi o‘qish uchun zarur bo‘lgan barcha vositalar mavjud. Mutaxassislar tomonidan yangi o‘quv uslubiy qo‘llanma

va darsliklar yaratildi.

Xo'sh, bugun BMSMlarda shunday sharoitlar yaratilgan ekan, unda olib borilayotgan ishlar, xususan o'qitish sifati qanday? Bu o'quv dargoxlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik darajasi qay ahvolda? Yaratilgan yangi o'quv qo'lanmalar, adabiyotlardan qanchalik samarali foydalanilmoqda?

Bugun ijrochilik san'ati rivojlanib, ijro etiladigan asarlarning darajasi ham ancha yuqorilab ketganligini inobatga olgan holda qo'llanmalarga kiritilgan murakkabroq, zamonaviy asarlarga e'tibor qaratilmayapti. Buning uchun yuqorida aytib o'tilganidek ushbu asarlarni o'qituvchi o'zi o'rganib, ijro qilib chiqishi kerak.

Bugun xalq cholg'ularida o'qitishda katta yutuqlarga erishilayotgan bo'lsada, ijroda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlanadi. Kamchiliklarni bartaraf etish uchun o'qituvchi –ustozlardan tinimsiz mehnat, o'z ustida muntazam ishlash, izlanish, o'z malakasini doymiy rivojlantirib borish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, BMSMlarda xalq cholg'ularida o'qitish uslubiyotini yaratish nafaqat Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, balki musiqa maktablarining etakchi o'qituvchilari ham izlanishlar olib borishi vaqti keldi.

XULOSA

So'nggi yillarda Respublikamizda o'rta maxsus va Oliy ta'limning barcha yo'nalishlarida iqtidorli talabalar bilan ishlash, "ustoz-shogird" an'alarini qayta tiklash, uni rivojlantirish va amaliyotga keng tatbiq qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilm-fan va texnika o'zining yuqori taraqqiyot cho'qqisiga erishgan, elektron darsliklar, masofadan o'qitish hamda yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'quv jarayonlariga kengroq tatbiq etilayotgan, kompyuter va internet tizimining qamrov doirasi kundan kun kengayib borayotgan davr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

XXI asr-axborot asri deb bejiz aytilmagan. Hozirgi zamon o'quvchilari televidenie, radio va video texnikalari hamda internet orqali juda ko'plab axborotlardan xabardor bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lganliklari bois, ularning fikrlash doirasi juda keng. Shuning uchun ham hozirgi zamon o'qituvchisi shu o'quvchilarning qiziqishlaridan xabardor bo'lishi, ularning mustaqil fikrlarini eshita bilishi va inobatga olishi shu bilan birga ularning xato kamchiliklarini ko'rsatib to'g'ri yo'lga yo'naltirishi lozim. Bu borada dars jarayoniga doimo ijodiy yondoshib, dars o'tish uslublarini va texnologiyalarini zamonaviy ruhda rivojlantirib borishi kerak.

Har bir o'qituvchining o'z uslubiyati bor. Lekin, shunga qaramay o'qitishning dastlabki davrlaridanoq o'quvchilarda o'qitilayotgan cholg'uga nisbatan qiziqish uyg'ota olish muhimdir. Agar o'qituvchi o'quvchilar hurmatini qozongan bo'lsa, shu o'qituvchiga bo'lgan hurmat orqali o'quvchida o'rganayotgan cholg'usiga mehr paydo bo'ladi.

Cholg'u ijrochiligi bo'yicha o'qitish individual xarakterga ega bo'lganligi sababli barcha o'quvchilarga bir xil qarab bo'lmasligi hammaga ma'lum o'quvchilarning xarakteri, zehni va qobiliyati har xil. Ularning ba'zilar musiqiy qobiliyatlarini yoshligidanoq namoyon qilishsa, ba'zilariniki birmuncha keyinroq ko'zga tashlanishi mumkin. Ba'zilar o'ta qobiliyati, shu bilan birga juda sho'x, o'yinqaroq bo'lishsa, ayrimlari vazmin, o'rtacha qobiliyatli, lekin mehnatsevar

bo'lishlari mumkin va hokazo. o'quvchilarning xarakterlari qanchalik xilma xil bo'lmasin, lekin ta'lim – tarbiyaning talablari barchaga barobar bo'lib qolaveradi. Shuning uchun ham aynan har bir o'quvchiga alohida e'tibor juda murakkab bo'lib, o'qituvchidan sabr-toqatni va o'quvchilar psixologiyasini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Cholg'u ijrochiligi o'qituvchisi boshqa fan o'qituvchilarga nisbatan talabalarning ta'lim-tarbiyasi bilan yaqindan shug'ullanadigan shaxs. Chunki individual ishlash jarayonida o'qituvchi talaba-o'quvchining barcha tomonlarini chuqur o'rganib chiqadi. Asosiy maqsad cholg'uda ijro etish va uning sirlarini o'rganish bo'lsada, butun o'quv davri mobaynida (boshlang'ich musiqa maktabi, litsey, kollej) talaba-o'quvchi bilan bo'ladigan muloqot o'quvchining ijobiy-salbiy tomonlarini, oilaviy sharoitini yaqindan o'rganib chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuning uchun ham o'quvchidagi salbiy sifatlarni ta'lim-tarbiyaning turli shakllaridan foydalanib asta-sekinlik bilan yo'qotib, uning ijobiy sifatlarini rag'batlantirib borish, repertuar tanlashda, ijro ustida ishlaganda, umuman amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchining shu sifatlarini inobatga olib ish ko'rish yaxshi samara beradi.

O'quvchini ruhlantirish, kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlash, uni rag'batlantirish orqali bunday salbiy o'zgarishlarni oldini olish mumkin. O'quvchilar cholg'u ijrochiligidan ta'lim beradigan o'qituvchisiga hurmat va ishonch bilan qaraydi. Bu ishonchga o'qituvchi avvalo o'zining yuqori darajadagi ijrochilik mahorati, puxta bilimi, o'z ishiga ma'suliyatlilik va madaniyati bilangina erishishi mumkin.

O'qituvchi har qanday vaziyatlarda ham o'zining oqilona fikrlari bilan o'quvchilarning diqqatiga sazovor bo'ladi. O'quvchilar oldida boshqa o'qituvchilarga nisbatan salbiy munosabatlar bildirish nafaqat o'sha o'qituvchining balki o'zining ham obro'siga putur etkazadi. Aksincha xalqimizning "ustoz-otangdek ulug'" degan naqliga binoan o'quvchi- talabalarni doimo ustoz-o'qituvchilar mehnatini qadrlab, ularga nisbatan hurmat-e'tiborda bo'lish kerakligini uqtirib bormoq kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» T. «O'zbekiston» 1994.
1. Karimov I.A Ma'naviy yuksalish yo'lida T.1992
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat T.1994
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.2008
4. DTS va o'quv dasturi 6 maxsus son.T.1999
5. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. «Xalq so'zi» 1997-yil 30 sentabr.
6. Abdullaev R.A. Musiqa ijodiyoti masalalari to'plami T. 2006
7. Abdullaev R. O'zbek mumtoz musiqasi T.2008
8. Akbarov I. Muzika savodi T., 1958
9. Akbarov I. «Muzika lug'ati» T., 1987
10. Akbarov I.A. «Muzika lug'ati». T., 1987.
11. Vasilev F.N. «Qashqar rubobi uchun gamma va arpedjio applikaturasi» T. 1978.
12. Vizgo T.S. «O'rta Osiyo musiqa cholg'ulari». Tarixiy ocherk. M. 1980.
13. Evdokimov Yu, Ahmedov I. Ruscha-o'zbekcha qisqacha muzika terminlar lug'ati. T., 1970.
14. Irgashev G'. «Gullar raqsi». T. 1983.
15. Karomatov F. «Uzbekskaya instrumentalnaya muzika» M. 1987.
16. Nazarov A.K. «Bas dutor darsligi» T. 1983.
17. Nazirov Q. «Oybuloq» T.1993.
18. Ne'matillo Ma'joziy «Tavorixi musiqiyn». Pekin, 1982.
19. Odilov A. «O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi» T. 1995.
20. Petrosyants A. «Cholg'ushunoslik» 3-nashri T. 1990.
21. Rajabov I. «Maqomlar masalasiga doir» T. 1963.
2. Rasultoev J. «O'zbek dutor ijrochiligi» T. 1997.
23. Taxalov S.M.«Afg'on rubobini chalishga o'rgatish metodikasi asoslari». T. 1983.

24. Tursunjon Latip «Uygʻur cholgʻu asboblari» Shinjon 1997.
25. Usmonov Q. «Boshlangʻich rubob darsligi». T. 1995.
26. Fitrat A. «Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi». T. 1993.
27. Sharipov N. «Rubob primada ijro etishni oʻrgatish metodikasi» T. 1990.
28. Qosimov R. «Rubob navolari» T. 1993.
29. Qosimov R. «Anʼanaviy rubob ijrochiligi». T. 1999.

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu-intranet.ped
6. belkanto.ru,

ILOVA







O`zgancha

M.M. ♩=90

O`zbek xalq kuyi



Farg'onacha

O'rtacha tez

O'zbek xalq kuyi

A.Odilov qayta ishlagan.
S.Usmonov qashqar rubobiga moslagan

The musical score is written for a melody and piano accompaniment in 2/4 time, with a key signature of three sharps (F#, C#, G#). The tempo is marked 'O'rtacha tez' (Moderate). The dynamics are marked as follows:

- First system:** Melody starts with *mf* (mezzo-forte). Piano accompaniment also starts with *mf*.
- Second system:** Melody continues with *mf*. Piano accompaniment continues with *mf*.
- Third system:** Melody continues with *mp* (mezzo-piano). Piano accompaniment continues with *mp*.
- Fourth system:** Melody continues with *mf*. Piano accompaniment continues with *mf*.
- Fifth system:** Melody continues with *f* (forte). Piano accompaniment continues with *mf*.

The score consists of five systems, each with a melody line and a piano accompaniment line. The melody line is in treble clef, and the piano accompaniment line is in bass clef. The key signature is three sharps (F#, C#, G#). The tempo is marked 'O'rtacha tez' (Moderate). The dynamics are marked as follows:

First system of musical notation. The treble clef staff features a melodic line with eighth and sixteenth notes, including a trill-like figure. The piano accompaniment in the grand staff consists of chords and single notes. A dynamic marking of *mf* is present in the treble staff.

Second system of musical notation. The treble clef staff continues the melodic line. The piano accompaniment remains consistent. A dynamic marking of *mp* is present in the treble staff.

Third system of musical notation. The treble clef staff shows a melodic line with a crescendo hairpin. The piano accompaniment continues. Dynamic markings of *f* and *mf* are present in the treble and piano staves, respectively.

Fourth system of musical notation. The treble clef staff concludes with a melodic line. The piano accompaniment continues. A dynamic marking of *f* is present in the treble staff.

POLONEZ

M. Oginskiy

Moderato

The musical score for "Polonez" by M. Oginskiy is written in 3/4 time and the key of D major. It begins with a piano introduction marked *p*. The main melody is characterized by a series of eighth and sixteenth notes, often beamed together. The score includes various dynamic markings: *p* (piano), *f* (forte), *sf* (sforzando), and *p* (piano). The tempo is marked "Moderato". The score concludes with a section marked "rit." (ritardando) and "a tempo" (return to tempo), with a metronome marking of M.M. ♩ = 100. The piece is composed of 16 measures in total.

This page of musical notation consists of five systems, each with a treble and bass staff. The key signature has one sharp (F#). The notation includes various musical symbols such as notes, rests, accidentals, and dynamic markings.

- System 1:** Treble staff has a melodic line with eighth and sixteenth notes. Bass staff has a rhythmic accompaniment with eighth notes.
- System 2:** Treble staff has a melodic line with eighth notes. Bass staff has a rhythmic accompaniment with eighth notes. Dynamic markings include *f*, *sf*, and *mf*.
- System 3:** Treble staff has a melodic line with eighth notes. Bass staff has a rhythmic accompaniment with eighth notes. Dynamic markings include *cresc.* and *f*. A section labeled "Tamom" is indicated.
- System 4:** Treble staff has a melodic line with eighth notes. Bass staff has a rhythmic accompaniment with eighth notes. Dynamic markings include *f*.
- System 5:** Treble staff has a melodic line with eighth notes. Bass staff has a rhythmic accompaniment with eighth notes. Dynamic markings include *sf* and *ff*.

rit. a tempo

mf

mf

cresc.

f

cresc.

f

Boshidan "Tamom"
so'zigacha chaling.

sf

sf